Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2023-yil
15-iyun
payshanba

№ 24 (4614)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz




## BOLALAR QUVONCHIDAN YASHNAYDI OLAM

16

## HAMON ODAMLAR ORASIDA

8



Iste’fodagi podpolkovnik Shuhrat Rahimjonov 30 yilga yaqin ichki ishlar organlarida xizmat qilib, 2013-yilda pensiyaga chiqqan. 2022-yilda o‘zi istiqomat qiladigan Oltiariq tumanidagi «Ko‘lbo‘yi» mahallasi ahli uning tajribasi va salohiyatiga ishonch bildirib, rais etib saylashdi. Bu tanlov ko‘p o‘tmay o‘zini oqladi. Mahallada jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, obod va fayzli hududga aylanib bormoqda.

*Матонат ва маҳорат*

# «НУРЛИ МАСКАН»НИНГ БИЛИМДОНЛАРИ

**Ангор туманидаги кўзи ожиз болалар учун ихтисослаштирилган «Нурли маскан» мактаб-интернатида Ангор ва Шўрчи туманларидаги кўзи ожиз болалар учун ихтисослаштирилган мактабларнинг 8–11-синф ўқувчилари ўртасида «Заковат» интеллектуал ўйини ўтказилди.**



Унда Президент Администрацияси Ижро этувчи аппаратининг Коммуникациялар ва ахборот сиёсати бўйича шўъба мудири Саида Мирзиёева ҳам иштирок этди. Қизғин баҳсларга бой бўлган ўйин ниҳоясида жамоалар муносиб тақдирланди.

Ушбу учрашув таассуротларини Саида Мирзиёева ўзининг ижтимоий тармоқдаги саҳифасида қуйидагича баён этди: «Ҳар сафар шу каби мактаб-интернатлар ўқувчилари билан учрашганимда, бу болаларнинг матонати, шижоати, ҳаётга муҳаббати мени ҳайратга солади. Бу ўғил-қизлар – фидойилик намунаси, қийин вазиятда таслим бўлмасликлари билан бошқаларга ўрнак ва уларнинг



ҳар бири, шубҳасиз, ҳурматга лойиқдир.

Брейн-ринг иштирокчилари орасида «Кўнгил кўзи» хайрия лойиҳаси доирасида кўзига жарроҳлик амалиёти ўтказилган ва натижада кўриш қобилияти яхшиланган болалар ҳам бор экан. Уларнинг учрашувдан, ўйин завқидан порлаётган кўзларини кўриб, бирга қувондим».

**Ўз мухбиримиз.**
*Сурхондарё вилояти.*

*Ёшлар ойлиги*

# УСТОЗЛАР ВА ҲАМКАСБЛАРДАН ЎРГАНИБ...

**Сергели тумани ИИОФМБнинг умидли ёш ходимлари ҳудуд тинчлиги ва осойишталигини таъминлашга ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқдалар. Улар устозлари ва ҳамкасбларидан билмаганларини ўрганиб, тажрибаларини орттириб боришмоқда.**







*ИИОФМБ Кадрлар билан таъминлаш гуруҳи катта инспектори, майор Фарҳод Абдуллаев ва ёш ходимлар иш жараёнида.*

Туман мактабларида якунланган ўқув йили давомида вояга етмаганлар томонидан жиноятчилик ва ҳуқуқбузарлик ёки бошқа ғайри ижтимоий хатти-ҳаракатларга имкон бераётган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда улар ўртасида турли кўнгилсиз ҳолатларни бартараф этиш бўйича туман ИИОФМБ ҲПБ Вояга етмаганлар билан ишлаш гуруҳи ВЕМБ инспектор-психологи, лейтенант Лобархон Саидованинг мактаб маъмурияти билан ҳамкорликда ўтказиб келган тадбирлари ўз самарасини берганини ҳам таъкидлаш лозим.

– Бошқармада «ходимбай» ишлаш тизими асосида шахсий таркиб ўртасида Касбий маданият, хизмат интизоми кодексига сўзсиз риоя этилишини таъминлаш, уларнинг маънавий-ахлоқий, жисмоний, жанговар ва соҳага оид билимларини ривожлантириш ҳамда ижтимоий қўллаб-қувватлаш ишларини ташкил этишда Жисмоний ва жанговар тайёргарлик гуруҳи мутахассис-инструктори, лейтенант Рустамхон Ҳамдамов муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда, – дейди Кадрлар билан таъминлаш гуруҳи катта инспектори, майор Фарҳод Абдуллаев. – Шунингдек у ходимлар билан индивидуал суҳбатлар ўтказиш жараёнида уларнинг ижтимоий муаммоларини, оилавий ва иқтисодий аҳволини ўрганишда гуруҳ ходимларига кўмакдош бўлмоқда.

Лейтенант Рустамхон Ҳамдамов спортга ошно ходимлардан бири. У кўп йиллардан буён спортнинг кикбоксинг тури билан шуғулланиб келади. У айни вақтда кикбоксинг ва муай-тай бўйича ўтказилган кўплаб мусобақаларда туман ИИОФМБ, қолаверса, бутун ички ишлар органлари шарафини муносиб ҳимоя қилиб келмоқда. Бунга қадар қатор мусобақаларда шоҳсупага кўтарилган спортчи ходим 2019 йили кикбоксинг бўйича Осиё чемпионати кумуш медалига сазовор бўлди. Ўша йили Тошкент шаҳар ҳамда Қашқадарё вилояти очиқ чемпионатларида ғалаба қозонди, «Best of the best Uzbekistan» чемпионлик камари соҳибига айланди.
2021 йили эса нуфузли халқаро турнирда барча рақибларини мағлуб этиб, олтин медаль билан тақдирланди.

Кикбоксинг бўйича спорт устаси, лейтенант Рустамхон Ҳамдамов келгусида халқаро мусобақаларда ҳам муносиб қатнашиб, юртимиз байроғини баланд кўтариш ниятида.

**Сарвар СОБИРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент шаҳри.*

*Профилактика хизмати*

# САЪЙ-ҲАРАКАТЛАР НАТИЖАСИ



**Тошкент вилоятининг Қибрай тумани ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, капитан Ўктам Йўлдошев касбга бўлган садоқати туфайли аҳоли ишончини қозониб келаётган фидойи осойишталик посбонларидан бири.**

Хизмат фаолияти давомида устози – ҳозирда истеъфодаги майор Аббос Исматуллаевнинг насиҳатларига амал қилди. Маҳалла фаоллари билан ҳамкорликда, муқаддам судланган ҳамда жиноят содир этишга мойил бўлган шахслар билан тез-тез профилактик суҳбатлар олиб борди. Уларни ишга жойлаштиришга астойдил ҳаракат қилди. Шунингдек, содир этилган жиноятларни «иссиқ изида» фош қилиш чораларини кўрди. Бу саъй-ҳаракатлар кўп ўтмай, ўзининг ижобий натижасини бера бошлади. Жиноят ва ҳуқуқбузарликлар сони йилдан-йилга камайиб борди.

Айни пайтда капитан Ўктам Йўлдошев тумандаги 4 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қиладиган «Кўприкбоши» маҳалласи осойишталигини таъминлашда сидқидилдан хизмат қилмоқда. У жорий йилнинг ўтган дав-



рида майда безорилик, жамоат жойларида спиртли ичимлик истеъмол қилиш, санитария-гигиена қоидаларига риоя этмаслик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни содир этган 150 нафар шахсга нисбатан маъмурий баённома расмийлаштирди. Муқаддам судланган 6 нафар шахсга маъмурий назорат ўрнатди. Оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг барвақт олдини олиш мақсадида 17 та нотинч оила аниқланиб, уларнинг турмуш тарзи назоратга олинди. Маҳалла фаоллари билан ҳамкорликда 15 та оилада ажримларнинг олди олинди. Кенг жамоатчилик билан ҳамкорликдаги тадбирлар натижасида маҳалла ҳудудида кўплаб ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олди олиниб, жиноят содир этилишига йўл қўйилмади.

– Бу ишларни амалга оширишда маҳалла фуқаролар йиғини раиси Дилшод Ходиев ҳамда фаоллар: Элмурод Худойқулов, Бахтиёр Раҳимов, Марҳамат Ибрагимоваларнинг ҳам ҳиссаси катта, – дейди капитан Ўктам Йўлдошев. – Улар маҳалла тинч ва осойишта масканга айланиши йўлида астойдил ҳаракат қилишмоқда.

**Михли САФАРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент вилояти.*

*Ҳалолликни шиор қилган ходимлар*



# ВИЖДОН АМРИ

**Жиноят содир этган фуқаро қилмишлари фош бўлгач, пушаймон бўлиши турган гап. Лекин, афсуски, баъзи кимсалар жазодан қутулишнинг ягона чораси пул деб ўйлашади. Ўзларини яна хатар домига ташлайдилар.**

Фирибгарликда айбланган фуқаро А. И. ўзгаларнинг 17 минг АҚШ долларини алдов йўли билан қўлга киритади ва ўзлаштириб юборади. Шу боис унга нисбатан қамоққа олиш эҳтиёт чораси қўлланилади.

У Тўрақўрғон тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси терговчиси, капитан Отабек Жалоловга унинг иш юритувида бўлган жиноят ишида қамоққа олиш эҳтиёт чорасини қўлламаслик эвазига 1000 АҚШ доллари таклиф этади...

Ана шундай вазиятларда қабул қилинган қарор ходимнинг ўз хизмат вазифасига лойиқ ёки нолойиқ эканини исботлайди. Бировнинг ҳаққидан қўрқмаслик, айниқса, жиноят содир этган шахсни пора эвазига жазодан озод этиш капитан Отабек Жалоловнинг эътиқодига зид эди. Шу боис у қарор қабул қилишда ҳеч иккиланмади.

А. И.нинг хомхаёли амалга ошмади. Терговчи унга тушунтирди, бундай хатти-ҳаракат навбатдаги жиноятга йўл очишини ётиғи билан тушунтирди. Лекин барча ҳаракатлари зое кетди...

Шундай қилиб, А. И. терговчининг хизмат хонасида 1000 АҚШ долларини бераётган пайтда ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари томонидан ашёвий далил билан ушланди. Ҳолат юзасидан Жиноят кодексининг тегишли моддаси билан жиноят иши қўзғатилди.

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Наманган вилояти.*

*Қўл жанги*

# КУБОК СОҲИБИ – ИИВ ТЕРМА ЖАМОАСИ

**Яқинда пойтахтимизда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар терма жамоалари ўртасида спортнинг қўл жанги тури бўйича «Миллий гвардия қўмондони кубоги» бўлиб ўтди.**

Мазкур мусобақада 24 та терма жамоадан жами 620 нафардан ортиқ спортчи ғолиблик учун ўзаро беллашди.

Қизғин ва муросасиз тарзда ўтган баҳслар якунига кўра, умумжамоа ҳисобида Давлат хавфсизлиги хизмати терма жамоаси учинчи ўринни қўлга киритган бўлса, Миллий гвардия вакиллари иккинчи ўрин билан кифояланишди. Рақибларидан яққол ажралиб турган Рафик Абдураҳмонов мураббийлигида майдонга тушган Ички ишлар вазирлиги терма жамоаси эса 6 та олтин медаль, 5 та кумуш, 5 та бронза билан шоҳсупанинг энг юқори поғонасидан жой олиб, қўмондон кубоги соҳибига айланишди.

Ғолибларга ташкилотчилар томонидан фахрий ёрлиқ ва қимматбаҳо эсдалик совғалари тантанали равишда топширилди.

Ҳамкасбларимизни ғалаба билан самимий муборакбод этиб, келгусида ҳам бу каби улкан зафарлар ёр бўлишини тилаб қоламиз!

**Озодбек НАСИМОВ,**
**подполковник.**




Навоийская область

# МИР В СЕМЬЕ – СПОКОЙСТВИЕ НАРОДА

**В городе Навои недавно проходил форум «Мир в семье – спокойствие народа», организованный Службой профилактики правонарушений Департамента общественной безопасности МВД Республики Узбекистан. Рассматривался опыт работы пятерок, действующих в махаллях области.**

В ходе мероприятия было отмечено, что МВД Республики Узбекистан и хокимиятом Навоийской области принято совместное постановление о сотрудничестве в реализации мер, направленных на раннее предупреждение правонарушений и преступности среди женщин, повышение их правовой культуры, обеспечение законности и правопорядка, стабилизацию социально-нравственной обстановки в махаллях, утверждена соответствующая «дорожная карта». Согласно документу за 36 махаллями города Навои закреплены предприятия и организации, перед председателями МСГ, помощниками хокимов, женскими активистками, молодежными лидерами, инспекторами профилактики поставлены конкретные задачи по недопущению фактов притеснения и насилия в отношении женщин, обеспечению их прав, устранению факторов, влияющих на развитие в семьях конфликтных ситуаций, оказанию социальной поддержки нуждающимся соотечественницам. Кроме того, поставлены задачи по всестороннему изучению проблем, волнующих женщин, оперативному принятию мер по их разрешению.



В целях претворения в жизнь положений данного постановления ранняя профилактика правонарушений и преступлений среди женщин осуществляется правоохранительными органами во взаимодействии с органами местного самоуправления, ответственными ведомствами и учреждениями. Разработан план мероприятий, создана рабочая группа.

Агитационно-разъяснительные и иные профилактические меры, реализуемые сотрудниками отдела профилактики правонарушений СОБ УВД Навоийской области, проводятся на основе девиза «Превратим город Навои в территорию, свободную от женской преступности». В ходе подомовых и поквартирных обходов выявлены имеющиеся у женщин проблемы, связанные с трудоустройством, ремонтом имеющегося жилья и его обеспечением, присутствием в отдельных семьях нездоровой нравственно-психологической обстановки, получением социальных пособий и др. На сегодняшний день разрешено около 100 проблем, информация о выявленных 102 проблемах направлена в соответствующие организации для решения в установленном порядке. Кроме того, среди населения проведено 208 профилактических встреч и бесед, в которых приняло участие свыше 4,1 тысячи человек. В ходе мероприятий роздано более 2,4 тысячи буклетов правовой направленности. Изучено социальное положение 496 лиц, состоящих на различных профилактических учетах, в ходе которого выявлено наличие у них 94 проблем. 24 проблемы были решены на месте сотрудниками ОВД, остальные 70 взяты на контроль, установлены конкретные сроки их разрешения.

В результате профилактической работы количество противоправных деяний, совершенных женщинами, в области за 5 месяцев текущего года сократилось на 20 по сравнению с аналогичным периодом минувшего года. Стоит отметить, что в 15 из 36 махаллей города Навои не допущено совершения противоправных деяний со стороны женщин.

Профилактическая работа среди женщин в соответствии с совместным постановлением МВД Республики Узбекистан и хокимията Навоийской области продолжается.

**Махлиё МИРЗАЕВА,**
**подполковник.**

*Yorug‘ yuz bilan*

# AKA-UKA PENSIYAGA KUZATILDI

**Bir sohada ko‘p yillar ishlab, izzat-ikrom bilan pensiyaga chiqish ko‘pchilikning orzusi. Aksariyat yoshlar «Bizlarga ham shunday kunlar nasib qilsin», deya niyat qilishi ham bejiz emas. Yaqinda Ichki ishlar vazirligi Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash qo‘shinlariga qarashli 7251-sonli harbiy qismda ham bir guruh harbiy xizmatchilarni pensiyaga kuzatish marosimi bo‘lib o‘tdi. E’tiborli jihati, ularning ikki nafari aka-uka.**





To‘g‘risi, bir vaqtda xizmatga kirib, ko‘p yillar bir joyda faoliyat ko‘rsatish va oxirida yana bir paytda pensiyaga chiqayotganlarni har doim ham ko‘ravermaymiz. Uzoq yillar bir tizimda, bitta joyda yelkama-yelka turib xizmat qilib kelgan Farhod va Farrux Faxruddinovlarga bu baxt nasib qildi. Pensiyaga kuzatish marosimida qo‘shin qo‘mondoni, polkovnik Shokirjon Xudoynazarov ishtirok etib, barcha pensiyaga chiqayotganlarni tabrikladi. O‘zining ezgu tilaklarini bildirib, bundan keyingi faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

An’anaga ko‘ra, ularga do‘ppi va to‘n kiydirilib, esdalik sovg‘alari taqdim etildi. Kuzatuv marosimida ishtirok etayotgan aka-uka Faxruddinovlarning padari buzrukvoriga minnatdorlik bildirilib, tashakkurnoma va sovg‘alar topshirildi.

O‘z navbatida, sobiq harbiy xizmatchilar e’tibor va ehtirom uchun qo‘mondonlikka minnatdorlik bildirib, bundan keyin ham har qanday xizmatga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

**Azamat KURBANBAYEV,**
**oddiy askar.**

*Qaror va ijro*

# ISTIQBOL ISHONCHNOMASI

**IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash qo‘shinlariga qarashli Nukus shahridagi 7261-sonli harbiy qismda kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi o‘tkazildi.**

Tadbirda qo‘shin qo‘mondoni, polkovnik Sh.Xudoynazarov bir guruh yigit-qizlarga besh foizli kvota hamda bir nafariga davlat granti asosida oliy ta’limning bakalavriatiga tanlovsiz qabul qilish bo‘yicha tavsiyanomalarni tantanali ravishda topshirdi.





– Xizmatni 2004-yili boshlaganman. O‘tgan vaqt mobaynida tartib-intizomga rioya etib, xizmatni namunali bajarib kelganim bois qizim Aynuraga besh foizli kvotani olish imkoniyati berilmoqda, – deydi 1-darajali serjant Murat Saparov. – U joriy yilda Nukus shahridagi 12-sonli maktabni tamomlab, Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutiga hujjatlarini topshirdi. Tayyorgarligi ham yaxshi, imtiyoz berilgani esa imkoniyatni yanada oshiradi. Har qanday ota-ona uchun farzandining yaxshi kunlari, xursandchiligiga guvoh bo‘lishdan ortiq baxt bo‘lmasa kerak.

**Omonkeldi SALIMOV,**
**mayor.**

Postda На посту

*Интересы человека – превыше всего*

# Шуманай: результаты целенаправленной работы





**Шуманайский район граничит с Кунградским, Канлыкульским и Худжайлийским районами, а также с соседним Туркменистаном. Он включает 13 аульских и махаллинских сходов граждан, специализируется в основном на сельском хозяйстве и животноводстве. При этом здесь функционируют два совместных текстильных предприятия.**



– Наш район многонациональный, численность населения составляет свыше 57 тысяч человек. Деятельность РОВД по профилактике правонарушений и преступности, укреплению правопорядка, обеспечению безопасности граждан осуществляется по принципу «махалля-район». В частности, в результате эффективной организации мероприятий «День профилактики правонарушений» за 5 месяцев текущего года в районе достигнуто значительное снижение количества преступлений, совершенных женщинами и молодежью, не допущено совершения противоправных деяний несовершеннолетними. Инспекторы профилактики во взаимодействии с представителями органов самоуправления граждан, с привлечением ветеранов, деятелей духовенства, изучают социально-психологическую обстановку в семьях, проводят соответствующую разъяснительную работу. 28 женщинам, пострадавшим от притеснений и насилия, выданы охранные ордера, примирены 5 семей, находившиеся на грани развода. В результате осуществляемых мероприятий количество «красных» махаллей в районе сократилось с 4 до 1, «желтых» – с 2 до 1, а количество «зеленых» махаллей возросло с 7 до 11, – говорит начальник ОВД Шуманайского района подполковник Улугбек Худойбергенов.

Что касается 3-го сектора района, то в него входят МСГ «Карабайли», аульские сходы граждан «Бирлешик» и «Бегжап». На территории сектора проживает более 15 300 человек. В ходе изучения, проведенного членами рабочей группы сектора, в «железную тетрадь» включены 5 семей, в «молодежную тетрадь» – 54 человека, в «женскую тетрадь» – 356 соотечественниц.

На основе анализа материального положения семей, включенных в «железную» тетрадь, была оказана соответствующая помощь, обеспечена полная занятость 4 трудоспособных их членов. При поддержке рабочей группы сектора и спонсоров оказывается помощь семьям, столкнувшимся с проблемами в жилищных вопросах. С.О., проживающему в «Бирлешик», К. К., проживающему на территории схода граждан «Бегжап», оказано содействие в возведении новых домов. Кроме того, трудоустроен 51 представитель молодежи, 224 женщинам оказана необходимая поддержка по различным направлениям.

– Определены «точки роста» махаллей. На основе принципа «одна махалля – один продукт» в «Бегжап» развиваются тепличные хозяйства и овощеводство, в «Бирлешик» и «Карабайли» – животноводство, – говорит старший инспектор группы социальной профилактики отделения профилактики правонарушений СОБ РОВД капитан Айбек Арзиев. – Для изучения и оперативного разрешения проблем, волнующих жителей, налажено систематическое проведение выездных приемов руководителя сектора. С начала года организовано 25 таких приемов.





**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**корреспондент «На посту».**
*Республика Каракалпакстан.*

*Ўринбосарнинг бир куни*

# ҲАР ЖАБҲАДА ЕТАКЧИ



**Гулистон тумани ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Азизжон Ғиёсов Ховос туманида туғилган. Азизбек мактабда ҳам, коллежда ҳам аъло баҳоларга ўқиди. Гулистон давлат университетини муваффақиятли тугатгач, уч ой ўтмай, ички ишлар органи ходимига айланди.**

Янгиер шаҳар ИИБ ҲПБ «Маърифат» маҳалласи профилактика инспектори вазифасида хизматни бошлаган А. Ғиёсов саккиз йил ўтар-ўтмас, Гулистон тумани ИИБ бошлиғининг ўринбосари лавозимига тайинланди.

...Гулистон тумани ИИБда эрталабки сафланиш. Майор Азизжон Ғиёсов ходимларни кўздан кечираркан, уларнинг хизмат вазифасига қай даражада тайёрлигига алоҳида эътибор қаратди. Буни кўп нарсадан уқиб олса бўлади. Кийиниши, ҳужжатларининг жойидалиги, кайфияти, ўзини тутиши ходимнинг лаёқатини баҳолаш имконини беради. Бугун ҳам шундай бўлди. Азизжон ходимларга хизмат вазифасини бажариш чоғида амал қилиниши лозим бўлган ахлоқий нормалар, Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси талаблари тўғрисида тушунча берди.

Шундан сўнг «Ибрат» маҳалласи профилактика инспектори, капитан Фурқат Мавлоновни хизмат хонасига таклиф қилди. Унинг оилавий аҳволи, муаммолари, хизмат жараёнида дуч келаётган қийинчиликларини обдан суриштирди. Айрим муаммоларини ҳал қилиш учун уч-тўрт жойга қўнғироқ қилди. Уларга профилактика инспектори тўғрисида яхши тавсиялар берди.



Азизжон Ғиёсовнинг ташаббуси билан туман ИИБда кутубхона ташкил қилинган. Кутубхона фонди яхшигина. Унда жаҳон ва миллий адабиётнинг дурдона асарлари ўрин олган. Ходимларга китобхонликнинг фойдаси ҳақида тушунтириш беришдан ҳеч қачон чарчамайди. Шунданми, кутубхонага обуна бўлган ходимлар талайгина.

...Майор А.Ғиёсов Боёвут тумани «Анорзор» маҳалласига етиб келганида кун чошгоҳга оғиб қолганди. Маҳаллада Гулистон тумани ИИБ таъминлаш бўлинмаси ҳайдовчиси, сафдор Дилмурод Бойматов истиқомат қилади. У оиланинг аҳволи билан танишаркан, ўзи учун зарур қайдларни ёндафтарига ёзиб борди. Ушбу оилага кўрсатиладиган бўлғуси кўмакнинг режаси шу тариқа тузила бошланди. Бу борада раҳбарият билан телефон орқали боғланиб ходимни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш зарурлиги юзасидан ахборот берди. Аслини олганда, «хонадонбай» ишлаш жуда самарали. Яқинда худди шундай ўрганишлар давомида бир неча ходимлар шахсий уй-жойга эга эмаслигини аниқлаган эди. Жумладан, туман ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш гуруҳи катта инспектори, капитан Жонибек Каримқуловга уй-жой олиш учун 106 миллион сўм маблағ ўтказиб берилди. Субсидия тарзида ажратилган ушбу маблағ ёрдамида оила уйли бўлди.

...Кечки пайт одатдагидек уйидан қўнғироқ бўлди. Кечки таом тайёр бўлиб қолган, 3 нафар болакай отасини интизор бўлиб кутарди...

**Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Сирдарё вилояти.*

*Профилактика инспекторлари фаолиятидан*

# АЗИМЖОННИНГ ҲАМ ҲИССАСИ БОР

**Навоий вилояти Кармана тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ профилактика инспектори, катта лейтенант Азимжон Шодиев ўзига бириктирилган «Варқ» маҳалласида жиноятчиликка қарши курашиш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган профилактик тарғибот тадбирларини мунтазам ўтказиб боради. Бу гал ҳам хонадонма-хонадон айланиб, Фарид (исми ўзгартирилган)нинг дарвозасини қоқди. Одатда ҳамма уни «Келинг» дея очиқ юз билан қарши олади. Аммо Фарид дарвозадан бошини чиқариб, инспекторнинг саволларига қисқа жавоб бериб, уни жўнатишга ошиқди.**



Катта лейтенант Азимжон Шодиев бундан шубҳаланиб, маҳалла раиси ва холисларни бошлаб келди. Ҳаммалари биргаликда ичкарига киришди. Ҳовли озода, саранжом эди. Томорқада экинлар барқ уриб ётарди. Уларнинг кўзи бир бурчакда ўсган узун бояли ўсимликларга тушди. Инспектор яқинроқ кўздан кечирганида, гумони тўғри чиқди. Буни қарангки, болаларию невараларига насиҳат қиладиган ёшдаги Фарид томорқасининг панароқ жойида 7 туп наша етиштираётган экан...

Қаҳрамонимиз катта лейтенант Азимжон Шодиев маҳаллада ўтказиб келинаётган «Турмуш», «Оила», «Тиғ» «Қорадори» каби тадбирларда фаол иштирок этади. Ҳар пайшанбада «Ижтимоий профилактика» тарғибот тадбирларини олиб боради.

Хизмат ҳудудида 3171 нафар аҳоли истиқомат қилади. Ҳар куни ишини эрта тонгдан маҳалла кўчаларини айланишдан бошлайди. Ўзи ҳам маҳалладаги хизмат уйида истиқомат қилади. Шу боис маҳалла аҳли билан бир оила аъзоларидек қадрдон бўлиб қолган. Ижарада туриш учун уй сўраб келганлар маҳалла раиси ва албатта профилактика инспектори Азимжон Шодиев билан суҳбатлашадилар. У профилактик ҳисобда турувчи 4 нафар шахс билан доимий тушунтириш ишлари олиб боради.

Ички ишлар органлари хизматига киргунига қадар тумандаги 31-мактабда педагог сифатида ёшларга таълим-тарбия берган ҳозирги фаолиятида қўл келмоқда. Маҳаллада вояга етмаганлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда маҳалла масъуллари ва ота-оналар билан ҳамкорликни тизимли йўлга қўйган. Яқинда ички ишлар органларида ўтказилган «Маънавият ойлиги» доирасида маҳалладаги ишсиз, уюшмаган ёшлар ўртасида спорт тадбирлари, билимдонлик беллашувларини ташкил этди.

Қувонарлиси, катта лейтенант Азимжон Шодиевнинг хизмат ҳудуди – «Варқ» маҳалласида ўтган 2 йил ичида бирорта ҳам оғир жиноят содир этилмади. Бунда ёш ходимнинг ҳам муносиб ҳиссаси бор, албатта.

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Навоий вилояти.*

Postda На посту

# BOLALAR BILAN TILLASHISH OSONMAS

**– deydi Jomboy tumani IIB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, leytenant Komiljon Tursunov**



**Ichki ishlar organlari xodimi bo'lish, odamlarni himoya qilish va ularga huquqiy yordam berish – leytenant Komiljon Tursunovning bolalikdan orzusi. Shu sababli, maktabni tamomlagach, Jizzax pedagogika institutining psixologiya fakultetiga o'qishga kirdi.**

Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2015-yilda Jomboy tumani IIB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimida boshladi.

Inspektor-psixologlarning kundalik faoliyati ta'lim muassasalarini aylanib chiqish, yuqori sinf o'quvchilari bilan giyohvandlik, alkogol va tamaki mahsulotlarining zarari, ularning organizmga salbiy ta'siri haqida profilaktika ishlarini olib borish, yomon insonlar ta'siriga uchragan o'smirlar taqdiri haqida ibratli videofilmlar namoyish etishdan iborat. Boshqacha aytganda, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspektor shunchaki xizmat libosi kiygan xodim emas, balki, birinchi navbatda, ziyrak psixolog va mahoratli pedagogdir.

– Men oltita umumta'lim maktabini nazorat qilaman, bunda asosiy vazifam voyaga yetmaganlar o'rtasida qarovsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, ularning ota-onalari bilan ishlashdan iborat, – deydi Komiljon Tursunov. – Jomboy tumanida jami 56 ta maktab mavjud. Bolalar bilan kattalar kabi gaplasha olmaysiz. Bundan tashqari, bolaning orqasida doimo farzandining aybi yo'qligi va uning yomon ishga qo'l ura olmasligiga ishonadigan ota-onasi, qonuniy vasiylari turadi.

Shu o'rinda tumanda o'tgan yilda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik holatlarini joriy yilning shu davri bilan solishtirganda, jinoyatchilik 50 foizga kamayganini ko'rish mumkin. Bu bevosita o'smirlar bilan olib borilayotgan profilaktik ishlar samarasi. Biroq ularda o'smirlik davri beqarorligi turli noxush holatlarga aralashib qolishning asosiy sabablaridan biri ekanligini ta'kidlagan bo'lardim.

Profilaktik ma'ruzalar davomida bolalarga shoshilinch vaziyatlarda o'zini qanday tutishi kerakligi, ko'chada ular bilan notanish kishi gaplashmoqchi bo'lsa, uyga noma'lum shaxslar kelsa qayerga xabar berish kerakligini tushuntiramiz. Bolalar ishonch bildirishi, ichki ishlar organlari xodimi doim yordamga tayyor do'st ekanini anglashi uchun ular bilan samimiy muloqot o'rnatish men uchun juda muhim.

**Zamira BALTAYEVA,**
**«На посту» muxbiri.**
*Samarqand viloyati.*

*Faxriylar safda*

# HAMON ODAMLAR ORASIDA

*(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)*

– Mahalla raisi bo'lib ishlash nihoyatda mas'uliyatli ekanligini shu vazifada ish boshlaganimdan so'ng angladim, – deydi u. – Dastlab fuqarolar yig'ini qoshidagi jamoatchilik komissiyalari ishini qayta ko'rib chiqib, har bir komissiyaga aholi o'rtasida obro'ga ega shaxslardan rais va a'zolarni sayladik. «Xonadonbay» va «fuqarobay» usulida o'rganishlarni muntazam tashkil etib, mavjud muammolarni manzilli hal qilishga harakat qildik. Bu sa'y-harakatlarimiz o'z samarasini bermoqda. Joriy yilning o'tgan davrida mahallamizda jinoyat sodir etilmadi, oilaviy ajrimlar ham qayd etilgani yo'q.

3242 nafar aholi istiqomat qiladigan «Ko'lbo'yi»da aholining aksariyat qismi doimiy tirikchilik manbayi va ish o'rniga ega. Xususan, 285 nafar fuqaro tadbirkorlik va savdo-sotiq ishlari bilan band, 50 nafari chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik bilan shug'ullanadi. 10 nafarga yaqin shaxs hunarmandchilik va kasanachilik yo'nalishida faoliyat olib bormoqda.

Mahallada ishsizlikka barham berish, ayollar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda hokim yordamchisi Kamoliddin Qobulov, xotin-qizlar faoli Dilorom Ummatova, yoshlar yetakchisi Abduhalim Abduvahobovlar raisga har tomonlama yelkadosh bo'lmoqda.



Jumladan, «Ayollar daftari»ga kiritilgan 8 nafar xotin-qizga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar taqdim etildi. 5 nafar ayol kasb-hunar markazlarida talab yuqori bo'lgan sohalarga qayta o'qitildi. 19 nafar xotin-qiz doimiy ishga joylashtirildi. 2 nafar ayolga subsidiya asosida tikuv mashinasi berilib, bandligi ta'minlandi.

– Mahallada jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda profilaktika inspektori, katta leytenant Shahboz Ne'matovning alohida o'rni bor, – deydi Sh.Rahimjonov. – O'zi yosh bo'lsa-da mas'uliyatli va harakatchan yigit. Bilmaganlarini mendan so'raydi, tajribalarimdan kelib chiqib, ustoz sifatida maslahat va tavsiyalar beraman. Hamkorligimiz esa mahallamizni jinoyatdan xoli hududga aylantirishda muhim omil bo'lyapti.

Rais kunda-kunora hudud profilaktika inspektori, katta leytenant Shahboz Ne'matov hamda faollarni yoniga olib, mahalla ko'chalarini aylanadi. Bemor yotgan keksalar, nuroniylar, ehtiyojmand fuqarolarni yo'qlab, ularning duosini oladi. Shuningdek, profilaktik nazoratda turgan shaxslar, notinch oilalar, jinoyat sodir etishga moyil fuqarolarning xonadonidan ham xabar olinadi. Yo'l-yo'lakay muammolar o'rganilib, ularni bartaraf etish choralari belgilanadi.

– Bilasiz, Oltiariqda yetishtiriladigan uzumning dovrug'i yetti iqlimga mashhur. Kuzda pishgan uzumni qish chillasidan ehtiyot qilib, erta bahorgacha tokda saqlaydigan sohibkor bog'bonlar aynan bizning mahallada yashaydi, – deydi Shuhrat Rahimjonov.

– Mahallamizdagi 576 ta xonadonda tomorqa mavjud bo'lib, barchasida uzum yetishtiriladi. Shuning orasidan yaxshigina daromad qilishadi. Shu bois aholining turmush darajasi ancha yaxshi. Mahalla ko'chalari ham yildan-yilga obod bo'lib bormoqda. Yaqinda hududimizdagi 6 kilometr ichki yo'llar asfalt qilindi.

Darvoqe, Shuhrat Rahimjonovning ota-bobolari ham ichki ishlar organlarida xizmat qilgan. U sulolaning to'rtinchi vakili sanaladi. Katta bobosi Xolbek Usmonov mamlakatimiz hududida tashkil etilgan dastlabki ichki ishlar organlari tuzilmalarida ishlagan. Keyinchalik bobosi, kapitan Yusuf Usmonov profilaktika inspektori sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, otasi, katta leytenant Rahimjon Usmonov esa yo'l harakati xavfsizligi xizmati rivojiga munosib hissa qo'shdi. Ayni kunda qahramonimizning o'g'li – sulolaning beshinchi vakili, kapitan Behzodbek Rahimjonov viloyat IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Farg'ona viloyati.*

# СОВЕРШЕНСТВУЕТСЯ СИСТЕМА «102»

**В деятельность органов внутренних дел широко внедряются современные информационно-коммуникационные технологии, осуществляется деятельность по повышению эффективности работы с обращениями физических и юридических лиц. В ходе поэтапных реформ особое внимание уделяется вопросам цифровизации, что способствует кардинальному снижению коррупционных факторов, совершенствованию обслуживания населения.**





Анализ показывает, что только за четыре месяца текущего года ежесуточно по Бухарской области обрабатывалось в среднем свыше 545 звонков, из которых 41,5 процента – сообщения о правонарушениях и преступлениях, 6,1 процента – сообщения о происшествиях, 49,3 процента – звонки, консультативного характера и др. Нередко звонки, совершаемые в систему «102», прерываются самими абонентами, немало и тех, кто звонит сюда ошибочно (проверка баланса телефона, наличия связи и т. п.).

В целях своевременного учета преступлений и происшествий, обеспечения дисциплины учета в ОВД система «102» интегрирована с программным модулем «Е-материал» Генеральной прокуратуры. При этом функциональные и технологические возможности расширяются. В перспективе будет создана «омниканальная платформа», представляющая собой систему приема и обработки информации, поступающей по общедоступным каналам связи, из социальных сетей, официальных интернет-сайтов, мобильных приложений. Будет также запущена услуга «Видеозвонки», что создаст условия для обращения граждан с нарушениями слуха и речи.

Реализуются меры по дальнейшему совершенствованию обеспечения коммуникации и взаимодействия с населением посредством социальных сетей. Это способствует открытости деятельности сферы, повышению доверия граждан к органам внутренних дел.

**Ботир АСАДОВ,**
**подполковник.**

■ Хорезмская область

# ПРЕЖДЕ ВСЕГО – ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ

**Ответственные задачи выполняют сотрудники отделения обеспечения безопасности на участке железной дороги «Хазарасп – Питнак» УОБТ Хорезмской области. В центре их внимания вопросы предупреждения несчастных случаев на магистрали, различного рода правонарушений, обеспечение безопасности граждан.**





– За истекший период текущего года в установленном порядке составлены административные протоколы в отношении 230 лиц, совершивших правонарушения, – рассказывает старший инспектор группы профилактики правонарушений подразделения майор Руслан Назаров. – Выявлены 12 несовершеннолетних, бесцельно бродивших по территории обслуживания. Они переданы родителям или лицам, их заменяющим. Осуществляется профилактическая работа с 22 ранее судимыми лицами, а также состоящими на специальном учете медицинских учреждений.

Сотрудниками подразделения на предприятиях, в организациях, а также в махаллях и образовательных учреждениях, расположенных вдоль железной дороги, проведено 133 мероприятия. В ходе встреч участникам на конкретных примерах разъясняется необходимость неукоснительного соблюдения правил пересечения железнодорожных путей, быть предельно внимательными, находясь у магистрали. Участникам раздаются буклеты о том, что железная дорога – зона повышенной опасности. В выездных мероприятиях принимают участие представители АО «Ўзбекистон темир йўллари», активисты махаллей.

**Соб. корр.**

*Fidoyi hamkasblarimiz*

# HAR SOHADA JAVLON URGAN DARYOSAN, AYOL!

**20 yil mahkumlikda umri o‘tgan Sobir ozodlikka chiqqanidan keyin ham jinoyatga qo‘l urdi. Bundan xabar topgan ichki ishlar organlari xodimlari uni qayta qonun hukmiga topshirishmoqchi bo‘lishganida, javobgarlikdan bo‘yin tovlab, qochishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng unga nisbatan qidiruv e’lon qilindi.**

O‘sha vaqtda Sherobod tumani IIBda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektor vazifasida ishlayotgan O‘roltosh Eshimovaning xayoliga tuyqus o‘sha qochoqni tutish rejasi keldi. Avvaliga Sobirning yashash manziliga borib, tanish-bilishlari, qo‘ni-qo‘shnilaridan so‘rab-surishtirib, uning telefon raqamini topdi. Shundan so‘ng jinoyatchi bilan telefon orqali bog‘lanishga urinib ko‘rdi. Urinishlari zoye ketmadi, telefon orqali uning ko‘ngliga yo‘l topishga harakat qildi. Albatta, bu oson bo‘lmadi. Jinoyatchiga yaxshi muomala qilishga urinar, telefonda u inspektor emas, hamshira rolini o‘ynardi. Turmush o‘rtog‘i YHXB xodimi bo‘lgani uchun O‘roltosh opani tushunardi, ammo har doim qaltis ishga qo‘l urganini va ehtiyot bo‘lishini tayinlardi.

Nihoyat, bir oy degan-da hiyla ish berdi, qochoq jinoyatchi uning qarmog‘iga ilindi. Ular Toshkent shahrida uchrashishga kelishishdi. Ammo uchrashuvdan oldin Sobir unga 15 kilo anor kerakligini aytib qoldi. Mana, endi payti keldi, deb o‘yladi O‘roltosh opa. Tezda tuman IIB boshlig‘ini bundan xabardor qildi. Anorlarni JQB xodimlari olib boradigan bo‘lishdi. O‘roltosh Eshimovaga esa ruxsat berishmadi. Har holda, ayol kishi bo‘lsa, biror zarar yetmasin, deyishdi.

Reja ular o‘ylagandek amalga oshdi. Jinoyatchi qo‘lga olindi.

Podpolkovnik O‘roltosh Eshimovaning bu birinchi ochgan jinoyati edi. U shundan keyin ham to‘xtab qolmadi. Shuningdek, pirotexnika vositalarini to‘xtatib qolish kabi ishlarda ham jonbozlik ko‘rsatdi.

Surxondaryo viloyati IIB HPB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik O‘roltosh Eshimova Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi bo‘lgan davrda Qashqadaryo ichki ishlar organi xodimi bo‘lib ishlagan.1996-yili Sherobod tumani IIBda axloq tuzatish bo‘limi inspektori vazifasida ishini davom ettirdi. Keyinchalik voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha inspektor hamda uzoq yillar xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor vazifalarida mehnat qildi.

– Bu yillar orasida turmushga chiqib, ikki o‘g‘il, bir qizli bo‘ldim, – deydi O‘roltosh Eshimova. – Qolaversa, hayot sinovlarida toblandim, bu bosh ko‘p og‘ir qiyinchiliklarni ko‘rdi. Tushkunlikka tushganimda onam, turmush o‘rtog‘im, farzandlarim yonimda turib, menga dalda bo‘lishdi. Hamkasblarim, ustozlarim esa to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdi. Ayniqsa, o‘sha vaqtlarda Sherobod tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limida ishlagan Sobir Musayevning bergan o‘gitlari hayotim davomida ko‘p bor asqatdi.



Qahramonimizning turmush o‘rtog‘i, iste’fodagi podpolkovnik Abdulla Aliqulov doim ayolini tushunishga, qo‘llab-quvvatlashga harakat qilgani O‘roltosh opaning peshonasi yarqiraganidan darak. Yillar suronida, mashaqqatlar to‘lqinida ular bir-biriga katta suyanch bo‘lishdi. Farzandlar ham ulardan o‘rnak olib ulg‘aydi. Bugun katta o‘g‘il Sardor Musurmonqulov Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filialida 5-kursda, Abrorbek esa Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida 3-kursda tahsil olmoqda. Sevinch bu yil maktabni tamomlaydi.

O‘roltosh Eshimova o‘z kasbining fidoyi xodimi sifatida ajrim yoqasida turgan ko‘plab oilalarni saqlab qolishda jon kuydirib, ijobiy natijalarga erishgan. Albatta, uning mehnatlari munosib rag‘batlantirildi. 2019-yili Prezident farmoniga ko‘ra, **«Sodiq xizmatlari uchun»** medali bilan, 2020-yili esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan I darajali **«Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun»** ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. 2019-yilda respublikada o‘tkazilgan **«Yil ayoli»** ko‘rik-tanlovida ham **«Eng yaxshi huquq-tartibot idorasi xodimasi»** sifatida e’tirof etildi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**
**«Postda» muxbiri.**
*Surxondaryo viloyati.*



**Ichki ishlar organlarida oila yumushlari, farzandlar tarbiyasini to‘la-to‘kis bajarib, yurtimiz osoyishtaligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shayotgan opa-singillarimiz juda ko‘p. Ulardan biri Xorazm viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimasi, leytenant Sabohat Sultonovadir.**

Xonqa tumanida tavallud topgan Sabohat o‘n yoshidan sportning karate turi bilan shug‘ullana boshladi. Unga 2-DAN qorabelbog‘ sohibi Bahodir Sariyev murabbiylik qildi. Tinimsiz mashg‘ulotlar, murosasiz bellashuvlar Sabohatni jismonan tobladi, mahoratini oshirdi. U avval viloyat, so‘ngra respublika musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok eta boshladi. Shundan so‘ng xalqaro turnirlarda ham o‘z omadini sinab ko‘rdi. Qo‘lga kiritilgan yutuqlar esa uni yanada yangi zafarlar sari undadi.

Natijalar sarhisobiga ko‘ra, u 18 karra O‘zbekiston chempioni, 4 karra xalqaro turnirlar g‘olibi, 1 karra Osiyo chempioni degan sharafli nomga munosib topildi. 2012-yili 1-DAN qorabelbog‘ sohibasiga aylandi, 2013-yili sport sohasida erishgan yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Shu yili imtiyozli ravishda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakultetiga talabalikka qabul qilindi. Oliygohni tamomlagach, Toshkent shahridagi 164-maktabda o‘quvchilarga ingliz tilidan saboq berdi.

2018-yil Sabohat Sultonova Xorazm viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasiga xizmatga qabul qilindi. Avvaliga xizmat vazifasini ado etish oson bo‘lmadi. Ammo barcha qiyinchiliklarni chidam bilan yengib o‘tishga, tanlagan kasbini yanada chuqurroq o‘rganishga intildi. Ustozi – podpolkovnik Marat Xudoyberganovning o‘gitlariga, nasihatlariga amal qilib, kasb sirlarini qunt bilan o‘rgandi. Natijada qisqa fursat ichida mustaqil ish yuritadigan, zimmasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradigan intizomli xodimaga aylandi.

Leytenant Sabohat Sultonova ayni vaqtda viloyatga kelayotgan turistlar xavfsizligini ta’minlash, ular bilan bog‘liq ko‘ngilsiz holatlarning barvaqt oldini olishda sidqidildan xizmat qilmoqda.

– Sabohat xushmuomalaligi, namunali xulqi, xizmat vazifasiga mas’uliyat bilan yondashishi bilan hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lib kelmoqda, – deydi viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik Marat Xudoyberganov. – Shuningdek, u yoshlarga xos g‘ayrat-shijoati, ingliz va rus tillarida erkin so‘zlasha olishi bilan viloyatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarda ijobiy taassurot qoldirmoqda.

Oila – muqaddas. Buni yaxshi anglagan qahramonimiz umr yo‘ldoshi, kapitan Doniyor Sultonov bilan oila mustahkamligi, tinch va totuvligiga alohida e’tibor berishyapti. Ayniqsa, oilaning zavqi, quvonchi bo‘lgan Daler osoyishtaligimiz posbonlarining suyukli farzandi sifatida kamolga yetmoqda.

– Istiqlol bergan baxtdan kuch-quvvat olib, bor bilim va mahoratimni, iqtidorimni yurtim rivojiga bag‘ishlashga, uning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashga ahd qilganman, – deydi, leytenant Sabohat Sultonova. – Ana shu maqsad yo‘lida kun-u tun xizmat qilishga tayyorman.

Yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligini ta’minlashdek sharafli vazifani mas’uliyat bilan ado etayotgan leytenant Sabohat Sultonova singari g‘ayrat-shijoatli yoshlarimiz yangi O‘zbekistonimizning faxri va g‘ururidir.

**Xudoybergan JABBOROV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Xorazm viloyati.*

*Ma'naviyat va ma'rifat darsi*

**Biz ommaviy axborot vositalari xodimlari timsolida o'zining chuqur bilim va tajribasi, noyob iste'dod va mahoratini xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, odamlarning ong-u tafakkurini yuksaltirish, jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik muhitini mustahkamlash, global axborot makonida milliy manfaatlarimizni himoya qilishdek olijanob ishlarga bag'ishlagan jonkuyar va zahmatkash insonlarni ko'ramiz.**

**Shavkat MIRZIYOYEV**

# OAV — jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi

## (27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni)

**Axborot mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasi shakllanishining asosiy vositalaridan biridir. Shuning uchun ham axborotga bo'lgan hayotiy ehtiyoj, uni qondirishga xizmat qiluvchi omillarni shakllantirish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelgan.**








Ommaviy axborotning asosiy ma'nosini anglatuvchi ma'lumot yig'ish, qayta ishlash va tarqatish hamda tezkor xabarlar yozib jamiyatni ogoh etuvchi shaxslar Amir Temur davrida ham bo'lganligi ma'lum. Bu haqda Sohibqironning «Qissayi Temur»ida bayon etilgan «Amr etdimkim, har sarhad va viloyat, lashkar va mamlakatg'a bir axbornavis (xabarlar yozuvchi, ya'ni muxbir) tayin etgaylarkim, sipoh va hokim va ra'iyat va begona lashkar va mol va manolning mudoxil va maxorij va begona odamlar va karvonning kirmak va chiqmog'i va hamsoya podshohlar mamlakatining axbori va alarning a'moli va af'oli va uzoq baladalardin dargohimg'a yuz qo'yg'on ulamo va fozil odamlarning ishlar va so'zlarin rostlig' va durustlig' bila yozib dargohg'a yiborgaylar», degan fikri buning dalilidir.

Asrlar oshsa-da, axborotga bo'lgan talablar deyarli o'zgarmagan. Aksincha, jamiyat hayotida uning ahamiyati tobora oshib borgan va bugungi kunga kelib, mamlakatimizning rivojlanish strategiyasini shakllantirish va uni bevosita amalga oshirishda katta rol o'ynamoqda. Bu esa ularning fuqarolik jamiyatiga xos asosiy omillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVni fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish yo'lidagi islohotlar izchil davom etmoqda. Diqqatga sazovor muhim tomoni shundaki, erkin OAVni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta'minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglab yetdi.

Respublikamizda istiqomat qilayotgan ko'p millatli mushtariylarning talab va istaklari inobatga olingan holda, bosma ommaviy axborot vositalari 12 ta tilda nashr etilmoqda, televideniye va radioda ham bu amaliyot qo'llanilmoqda, eshittirish va ko'rsatuvlar qardosh xalqlar tillaridan tashqari, rus, ingliz tillarida ham efirga uzatilib, veb-saytlar o'zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yuritadi.

Sohaga zamonaviy texnologiyalar izchil joriy etilishi natijasida tizimga raqamli, mobil va internet televideniye kabi mutlaqo yangi mediatuzilmalar kirib kelmoqda.

Jumladan, Ichki ishlar vazirligi Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi hamda hududlardagi IIB axborot xizmatlari xodimlari internet tarmog'idagi veb-sayt hamda telegram kanallari orqali aholini ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyati haqida o'z vaqtida va ishonchli xabardor qilib kelmoqda.

Axborot xizmatlari xodimlari mazkur yo'nalishdagi dolzarb masalalarni aholiga doimiy ravishda yetkazib turish, ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida noto'g'ri va noxolis axborotlar tarqalishining oldini olish, huquqbuzarliklar bilan bog'liq vaziyatlarning tezkor va haqqoniy yoritilishini ta'minlashda fidoyilik ko'rsatishmoqda. Bu borada, ayniqsa, Samarqand va Navoiy viloyatlari IIB Axborot xizmatlari, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Axborot xizmati boshlig'i, katta leytenant Shahrizod Shokirov hamda IIV Akademiyasi Axborot xizmati boshlig'i, kapitan Jamshid Xolovlarning jonbozligini alohida ta'kidlash lozim.

Veb-saytlar soni oshib borayotganligi nafaqat fuqarolarimizning, balki boshqa mamlakatlar aholisining ham respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlar haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu misollar mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirishga oid siyosat tizimli asosda, bosqichma-bosqich va aniq maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Shiddat bilan kechayotgan hodisa-voqealar oqimida katta hajmdagi axborotning mazmunini anglash, uni to'g'ri talqin etib xulosalar chiqarish nihoyatda muhimdir. Bu esa axborotni tanlash, saralash, uni to'g'ri idrok etish madaniyatini shakllantirish kabi insonning bevosita dunyoqarashi, salohiyati, tajribasi bilan bog'liq xususiyatlarni kamol toptirish masalalarining dolzarbligini oshiradi.

Ayni chog'da internetning milliy segmentida o'z faoliyatini yuritayotgan internet nashrlarida Hi-Tech, madaniyat, ilm-fan, hordiq, sport, biznes, davlat boshqaruvi organlari kabi yo'nalishlarda veb-saytlar joylashtirilgani, yangi xizmat turlari joriy etilayotgani ham undan foydalanuvchilar, xususan, yoshlar safi kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari ham shakllangan. Misol uchun, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarda yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi belgilab qo'yilgan.

Shu asosda, yoshlarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini yanada kengroq ro'yobga chiqarish, ularni axborot xurujlaridan himoyalashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida zarur choralar ko'rilmoqda.

Xullas, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda OAVni barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati tamoyillarini qaror toptirishning muhim omillaridan biriga aylantiradi.

**Jahongir SHAROFBOYEV,**
**jurnalist.**

Postda
На посту

*Урок духовности и просвещения*

# СМИ – ЗЕРКАЛО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

## (27 июня – День работников печати и средств массовой информации)

**В вашем лице мы видим самоотверженных и трудолюбивых людей, которые свои глубокие знания, талант и мастерство отдают такому благородному делу, как обеспечение конституционных прав граждан в сфере информации, возвеличивание чести и достоинства человека, повышение самосознания и расширение мировоззрения соотечественников, укрепление атмосферы открытости и гласности в обществе, защита национальных интересов в глобальном информационном пространстве.**

**Шавкат МИРЗИЁЕВ.**



В нашей стране осуществляется масштабная работа по превращению средств массовой информации в надежный мост для диалога с народом, развитию современного рынка информационных услуг, здоровой конкуренции среди масс-медиа.

Медиакомпании Узбекистана, заняв достойное место на мировой информационной арене, стремятся активно участвовать в общественно-политических процессах. В этих целях осваивается передовой зарубежный опыт, современные информационные технологии, воспитывается новое поколение специалистов национальной журналистики.

Для достижения высоких рубежей, отраженных в Стратегии развития Нового Узбекистана, руководством страны поставлена приоритетная задача – создание для граждан наиболее благоприятных возможностей в сфере информации, повышение роли и влияния СМИ в осуществлении общественного контроля за деятельностью органов государственной власти и управления. Важным шагом в данном направлении стало принятие постановления Президента «О мерах по поддержке средств массовой информации и развитию сферы журналистики» от 27 июня 2022 года, в котором предусмотрены меры по усилению защиты законных интересов СМИ, дальнейшему повышению их потенциала и конкурентоспособности.

Все мы учимся демократии, и этот процесс непрерывный. «Нам необходимо еще многого добиться в данном направлении. Уверен, что имеющие твердую гражданскую позицию, обладающие богатым профессиональным и жизненным опытом представители печати и СМИ, уважаемые ветераны сферы станут для нас примером в воспитании подрастающего поколения именно в таком духе», – отметил Президент.

Стали традиционными регулярные встречи руководителей органов управления всех уровней с представителями СМИ, широкое обсуждение на пресс-конференциях, в ходе открытых бесед актуальных вопросов, касающихся жизни государства и общества. Такой подход – важнейшее направление проводимой в стране политики гласности и демократизации.

В республике неуклонно растет количество СМИ. На сегодняшний день их общее число составляет свыше 1,9 тысячи, что служит фактором обеспечения плюрализма мнений, создает возможности для оперативного освещения волнующих людей проблем. Заслуживает внимания и то, что увеличивается число негосударственных электронных СМИ, газет и журналов, издательств и типографий.

Значительные изменения происходят в деятельности национального телевидения: новая современная платформа «Over-the-top» Национальной телерадиокомпании Узбекистана, объединяющей теле- и радиоканалы с круглосуточным вещанием, позволяет центральным телеканалам транслировать передачи по всей стране и в более ста государств мира, активно действовать в социальных сетях.

Век интернета диктует новые требования и правила. В нашу жизнь все больше входят электронные средства массовой информации, в частности, интернет-журналистика. Информационные службы государственных и негосударственных организаций активно работают в интернете, имя свыше 2,4 тысячи официальных веб-сайтов, каналов в социальных сетях.

В центре постоянного внимания руководства страны вопросы подготовки высококвалифицированных кадров для сферы. В стране действует Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, подготовка специалистов осуществляется в Ташкентском государственном университете востоковедения, Самаркандском государственном институте иностранных языков. В данном направлении большое значение имеет реализация инициатив, выдвинутых Союзом журналистов Узбекистана, в соответствии с которыми с участием молодых журналистов, блогеров, работников пресс-служб проводятся научно-практические конференции «Национальная журналистика: преемственность традиций и современность», организуются дискуссии «Школа журналистики Узбекистана: творческое наследие и традиции», «Общество и СМИ», «Журналистская этика», мастер-классы и творческие конкурсы.



Положительные результаты дает налаживание механизма оперативного реагирования на критические выступления в средствах массовой информации, выражения мнений и позиций через информационные службы министерств и ведомств.

Журналисты Объединенной редакции, информационных служб МВД, территориальных подразделений и отраслевых служб, ведомственных изданий освещают многогранную деятельность органов внутренних дел, налаживая прямой диалог с населением по вопросам обеспечения общественной безопасности и укрепления правопорядка. Эта работа приобретает особую значимость в свете реализации положений постановления Президента «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением».

В настоящее время количество веб-сайтов системы МВД Республики Узбекистан в интернете достигло 22, официальных страниц в социальных сетях – 74. К примеру, только в мессенджере Telegram, являющемся наиболее популярным в Узбекистане, создано 17 официальных страниц, на которые подписано около 475 тысяч человек.

Высоких результатов в работе достигают информационные службы МВД, Департамента исполнения наказания, ГУВД Ташкентской области, УВД Сырдарьинской, Самаркандской, Наманганской, Сурхандарьинской, Бухарской, Навоийской, Хорезмской областей.

Журналисты, работающие в структуре ОВД, стремятся своевременно доносить до соотечественников правдивую информацию, держать население в курсе происходящего в области профилактики правонарушений и борьбы с преступностью.

Динамичное развитие информационной сферы – важный фактор углубления преобразований в стране. В процессе демократических реформ каждый ответственный работник, исходя из принципа «СМИ – зеркало развития общества», должен взаимодействовать со средствами массовой информации, а журналисты неуклонно следовать профессиональным требованиям, главные из которых оперативность, достоверность и объективность.

**Радик ТУМПАРОВ,**
**корреспондент «На посту».**

*Инсон қадри учун*

# ХАЙРЛИ ИШЛАР ДАВОМ ЭТАЖАК



**Яшнобод тумани 3-сектор ҳудудида 76 минг нафардан ортиқ аҳоли яшайди. Шундан 38 минг нафардан ошиғи хотин-қизлар, 15 минг нафарга яқини ёшлардан иборат. Жорий йил май ойида Тошкент шаҳар ИИББ раҳбарияти ва туман 3-сектор раҳбари, ИИОФМБ бошлиғи, подполковник Ойбек Каимхўжаев томонидан ёшлар билан учрашувлар ташкил этилди. Бир қатор ёшларнинг мурожаатлари тингланиб, муаммолари ўрганилди ва уларнинг ечимига кўмак берилди. Мисол учун, Меҳрибонлик уйи тарбияланувчиси А.Бобомуродова фуқаролик паспортини йўқотган экан, янгисини олишга эса имконияти йўқ. Сектор раҳбари томонидан унга янги ID-карта топширилди. Шунингдек, 4 нафар ёш субсидия олиши учун «Ёшлар дафтари»га киритилди.**

Бундан ташқари, «Баркамол» маҳалласида яшовчи 2001 йилда туғилган олий таълим муассасасига шартнома асосида ўқишга кирган Малика Халенованинг бир йиллик ўқув йили учун 50 фоиз контракт пули тўлаб берилди.



Хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспекторлар, подполковниклар Диёра Омонова ва Муқаддас Авазова, катта лейтенант Мухлиса Бурхонова ҳамда Ёшлар масалалари бўйича катта инспектор, капитан Альбина Ахмедовалар нафақат 3-сектор, балки туман миқёсида ўз йўналишлари бўйича бир қатор чора-тадбирларни амалга ошириб келишмоқда.

Хусусан, оила ва хотин-қизлар қўмитаси томонидан мутасаддилар билан биргаликда хотин-қизларни касб-ҳунарга ўргатиш ва бандлигини таъминлаш, тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш, иқтидорли ёш хотин-қизларни тўғри йўналтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шунингдек, тиббий-ижтимоий хизматлар кўрсатиш, соғлом турмуш тарзини таъминлаш, тураржойга муҳтожларни уй-жой билан таъминлаш, турмуш ва меҳнат шароитларини яхшилаш, даромадларини кўпайтириш каби хайрли ишлар тегишли идора вакиллари билан ҳамкорликда амалга оширилмоқда.

Яқинда 3-сектор раҳбари ҳамда Касаба уюшмалари Федерацияси ходимлари томонидан «Хосиятли» маҳалласида яшовчи, «Аёллар дафтари»га киритилган М. Султоновага даволаниши учун «Чинобод» санаторийсига бепул йўлланма берилди.

Мамлакатимизда олиб борилаётган барча ислоҳотлар одамларнинг дарду ташвишларини енгиллатиш, уларнинг фаровон ҳаёт кечиришига қаратилган. Инсон қадр-қиммати ва унинг қонуний манфаатларини таъминлаш мақсадидаги кенг кўламли ислоҳотлар янги поғонага кўтарилмоқда. Яшнобод тумани 3-сектор мисолида кўрганимиздек, хайрли ишлар бардавом бўлиши беиштибоҳдир.

**Сарвар СОБИРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент шаҳри.*

*Олов – тилсиз ёв*

# ХАВФСИЗЛИГИМИЗ ЎЗ ҚЎЛИМИЗДА

**Кундан-кунга чирой очиб, янада гўзаллашиб бораётган пойтахтимизнинг ҳар бир кўчасида қурилиш, ободонлаштириш ишларини кузатишимиз мумкин. Тобора кенгайиб, салобат касб этаётган шаҳримизнинг ҳар бир гўшасида ҳашаматли иншоотлар, боғ-роғлар барпо қилиниб, баъзи жойларда таъмирлаш ишлари жадал суръатларда олиб борилмоқда.**

Инсонларга энг қийин пайтда, кутилмаган вазиятларда ёрдамга келувчи фавқулодда вазиятлар хизмати ходимларидан эса ушбу масканларда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиниши юзасидан назоратни кучайтириш талаб қилинади. Қурилиш меъёрларининг бузилиши, белгиланган талабларнинг бекаму кўст бажарилмаслиги кўнгилсиз ҳодисаларга олиб келиб, инсонлар ҳаётига жиддий хавф туғдириши мумкин. Билъакс, яратувчанлик йўлида ўзларининг беминнат ҳиссаларини қўшаётган қурилиш ишчи-хизматчилари бунёдкорлик ишларини бажариш жараёнида ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилишлари билан ўзларининг ва оила аъзоларининг хотиржамлигини таъминлаган бўладилар.

Қурилиш майдонларини ёнувчи чиқиндилардан доимий тозалаш, қўлбола электр иситиш анжомлари ва очиқ оловдан фойдаланмаслик, мумкин бўлмаган жойларда сигарета чекмаслик, кислород баллонларини тўғри сақлаш, бўёқлар, гарбид, ёғоч материалларининг бирга сақланишига йўл қўймаслик, электр ва газ пайвандлаш ишлари даврида ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш, қурилиш майдонларида ёш болаларнинг ўйнаб юришини тақиқлаш каби кўпгина қоида-талабларга амал қилинганда, юз бериши мумкин бўлган ёнғинлардан ва кўнгилсиз ҳодисалардан сақланиш мумкин.

Шуни ёдда тутиш керакки, нафақат қурилишларда, балки ҳаётимизнинг ҳар бир жабҳасида ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш билан ўз ҳаётимизни, давлат мулки ҳамда шахсий мулкимизни ёнғин офатидан асраган бўламиз.

**Мамуржон ФИРМАТОВ,**
**катта сержант.**
*Тошкент шаҳри.*

*Sportni sev, sport bilan yasha!*

# «HAR KUNI 5–6 KILOMETR YUGURMASAM, KO'NGLIM JOYIGA TUSHMAYDI»



**«Dushunbadan boshlab sport bilan shug'ullanaman, har kuni ertalab turib 2–3 kilometr yuguraman...» Aytish mumkinki, bunday kun tartibini ko'pchilik rejalashtiradi. Lekin ba'zan irodasizlik, ba'zida dangasalik tufayli kunlar, oylar, yillar o'tsa-da, reja rejaligicha qolib ketadi.**

IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7534-sonli harbiy qismda xizmat qilib kelayotgan 1-batalyon nazoratchilar vzvodi nazoratchisi, katta serjant Oripjon Mirsodiqovga buning aloqasi yo'q. 45 yoshdan oshibdiki, u hali-hamon yugurishni, sport bilan shug'ullanishni kanda qilmaydi.

– Har kuni ertalab 5–6 kilometr yugurmasam, ko'nglim joyiga tushmaydi, – deydi Oripjon Mirsodiqov. – Mabodo bir kun yugurmay qolsam, kun davomida o'zimni lanj his qilaman, qilayotgan ishimda unum bo'lmaydi. Shuning uchun bu odatimni iloji boricha kanda qilmaslikka intilaman. Yugurgan sayin yoshargandek bo'laman, uncha-munchaga charchamayman.

Qahramonimiz xizmat qiladigan harbiy qism uning uyidan uncha uzoq emas. Nari borsa, 6–7 kilometr chiqadi. U bu masofani har kuni yugurib bosib o'tadi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 1999-yilda Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismda boshlagan Oripjon Mirsodiqov bolaligidan sportni sevib, bir necha turlari bilan muntazam shug'ullanib kelgan. Ayniqsa, yengil atletika, ko'pkurash va qo'l jangi turlari bo'yicha harbiy xizmatchilar oilalari o'rtasida tashkil etiladigan musobaqalarda Mirsodiqovlar oilasi doim faol ishtirok etib, g'oliblar safida bo'lib kelmoqda.

Oripjon Mirsodiqov 2017-yili huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan XXVI spartakiada dasturidagi yengil atletika musobaqasida 1000 metrga yugurishda ikkinchi o'rinni olgan bo'lsa, keyingi yilgi spartakiadadagi ko'pkurash musobaqasida uchinchi o'rinni egalladi. Joriy yil ham Oripjonga ancha omadli keldi. 2023-yil aprel oyida Ichki ishlar vaziri kubogi uchun sportning yengil atletika turi bo'yicha 1000 metrga yugurish yo'nalishida o'tkazilgan musobaqada ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

«Ot izini toy bosar» deganlaridek, bugun uning kasbini farzandlari davom ettirish istagida. O'g'illari Tohir va Mirdas Ramanjonovlar IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatining eng faol o'quvchilaridan. Taekvondo bilan mukammal shug'ullanib, bir qancha yutuqlarga erishgan Tohir va Mirdas endilikda otasiga havas qilib, yugurishni ham kanda qilishmaydi. 1000, 3000 metr masofalarga yugurish bo'yicha chempion otasiga o'xshab g'oliblar safida bo'lishyapti.

Xullas, sportni sevish, sport bilan yashash Mirsodiqovlar oilasining shioriga aylangan.

**Foziljon MAMASHARIPOV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Jinoyat muhokamasi*

**Jamiyatda sodir bo'ladigan jinoyat, uning turidan qat'i nazar yuzaga kelish omillarini bartaraf etish zarur. Shu ma'noda, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va sodir etilishiga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilish, zarur chora-tadbirlarni belgilab olish kelgusida bu kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.**

Kitob tumanidagi «Beshterak» mahalla guzarida o'tkazilgan jinoyat muhokamasida viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, tuman sektor rahbarlari, mutasaddi tashkilotlar, mahallalar vakillari va fuqarolar ishtirok etdi.

# BEFARQLIKNING ACHCHIQ SABOG'I

Ma'lum bo'lishicha, qotillik jinoyati oila-turmush doirasidagi kelishmovchiliklar sabab yuz bergan. Yaxshi ko'rgan qiziga sovchi yuborgan A.L. rad javobini olgach, bunga qizning tog'asi K.Y. qarshilik qilayotganidan xabar topadi. Biroz vaqt alamzadalikda yurgan yigit qizning tog'asidan o'ch olishni ko'ngliga tugadi. Qulay fursat poylab, K.Y.ning uyiga devor oshib kiradi va yotoqxonaga kirib uy egasining boshiga tayoq bilan bir necha bor uradi. Bunga ham qanoat qilmagan yigit K.Y.ni pichoqlab, voqea joyidan qochib ketadi. Oqibatda jabrlanuvchi voqea joyida dunyodan ko'z yumadi.

Bu holatni qo'ni-qo'shnilar, mahalla faollari, ayniqsa, qarindoshlar bilmagan deyish noo'rin. Qolaversa, mahalla beshligi o'z vaqtida profilaktik ishlarni amalga oshirmagani ham taassufli hol.

Yig'ilishda «sen menga tegma, men senga» qabilida yashash mudhish jinoyatning yuzaga kelishiga sabab bo'lgani aytilib, fuqarolarning kundalik tashvishi va dard-u muammolari bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan mahalla beshligi, qolaversa, el kayvonilari qishloq odamlari hayotida kechayotgan holatlarga vaqtida e'tibor qaratmagani tanqid qilindi. Kelgusida bu kabi ko'ngilsiz holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

**Sodiq RAHIMOV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Qashqadaryo viloyati.*

*Ветераны всегда в строю*

# ДЕЛИТСЯ ЧАСТИЧКОЙ ДУШИ



**Как хорошо, что среди нас много людей, которым небезразлична судьба соотечественников, особенно тех, кто посвятил всю свою жизнь служению Родине. Внеся достойный вклад в общее дело, они вышли на заслуженный отдых, и теперь очень нуждаются во внимании и участии общества. Мы не должны и не имеем права забывать ветеранов, продемонстрировавших пример патриотизма, верности долгу и справедливости…**

Среди тех, кто душой и сердцем переживает за судьбы людей долга и чести, нельзя не назвать подполковника в отставке, члена Совета ветеранов МВД Республики Узбекистан Тамару Николаевну Миронову. Она словно добрый ангел-хранитель делает все от нее зависящее, чтобы поделиться частичкой доброты и тепла с ветеранами ОВД, хранит память о тех, кого больше нет с нами, наставляет молодежь, вставших в ряды правоохраны, беречь и преумножать традиции предыдущих поколений.

...Жизненный путь Т. Мироновой связан с медициной в структуре МВД Узбекистана.

– Моя бабушка и мама были медсестрами, – вспоминает героиня очерка. – Так что можно с уверенностью сказать, что я продолжила семейную династию медицинских работников, поступив в 1966 году на санитарный факультет Ташкентского государственного медицинского института, и после его окончания была по распределению направлена в г. Самарканд.

Профессиональное становление Тамары Николаевны богато на события. Судьбоносной можно назвать встречу с начальником тогда еще Медицинской службы МВД Рауфом Холматовым, который увидел в молодом специалисте незаурядный врачебный талант, искреннее желание работать, что называется, не покладая рук. С 1974 года и началась деятельность Тамары Мироновой в органах внутренних дел по линии медицины.

– Вместе с коллегами стояли у истоков образования и становления Медицинского управления МВД Узбекистана и санитарно-эпидемиологической службы, – отмечает Т. Миронова.

– С Тамарой Николаевной были коллегами, вместе по линии санэпиднадзора работали в медуправлении МВД, – вспоминает Елена Михайловна Чунихина. – Ее высокий профессионализм был и остается для учеников и последователей примером, своеобразной путеводной звездой. Она не знает, что такое отдых, постоянно в движении, постоянно занята в Совете ветеранов МВД, делает так, чтобы ветераны, в том числе медицинской службы, были в поле зрения, оказывая им помощь и содействие. От души благодарю ее за отзывчивость, желание быть полезной, за то, что не забывает нас!..

Ныне многочисленные ученики Тамары Мироновой продолжают дело наставника, осуществляя плодотворную деятельность в структуре медуправления МВД Узбекистана.

Супруг героини очерка, Юрий Николаевич Миронов, также был медицинским специалистом. В последнее время работал в медслужбе УВД столичной области. К сожалению, в прошлом году Юрия Николаевича не стало. Тяжесть утраты тяжелым камнем легла на сердце Тамары Николаевны, но ее согрели теплом – дочь, Татьяна Миронова, и внук, Александр. Дочь в звании майора служит психологом в ГУВД г. Ташкента. А внук, что называется, «без пяти минут» биолог, по сути дела идет по стопам бабушки, продолжая династию.

Следует отметить, что Т. Миронова частый гость в Объединенной редакции МВД. На протяжении многих лет она помогает нам, готовит материалы о ветеранах Второй мировой войны и органов внутренних дел, о тех, кто честно и беззаветно служил во имя закона и справедливости.

Вот такая она, Тамара Николаевна Миронова, – активная, вся в заботах о ветеранах.

20 июня уважаемая Тамара Николаевна отмечает День рождения. Сердечно поздравляем ее с этим знаменательным событием, желаем крепкого здоровья, благополучия и успехов на благо любимой Родины!

*Нет наркотикам!*

# ОПЕРАТИВНО-ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕРОПРИЯТИЯ ПРОДОЛЖАЮТСЯ

**Любой наркотик – сильнейший яд, разрушающий организм человека. Наркотики оказывают необратимое влияние, прежде всего, на нервную систему и головной мозг. В результате их воздействия снижаются интеллектуальные способности человека. Справедливо утверждение, что наркомания – добровольное сумасшествие.**





К сожалению, сколько бы ни говорили о вреде наркотиков, некоторые люди, особенно представители молодежи, не прислушиваясь к здравым мыслям, становятся зависимыми от них.

Сотрудники органов внутренних дел ведут непримиримую борьбу с преступлениями, составляющими незаконный оборот наркотических средств, в том числе с незаконным их изготовлением, приобретением, хранением, а также культивированием запрещенных к возделыванию культур.

Так, сотрудниками подразделений УВД Джизакской области было установлено, что житель МСГ «Учтепа» Шараф-Рашидовского района Ш. Б. на приусадебном участке, а также в 21 горшке выращивал 1 100 кустов наркотикосодержащего мака и 103 куста каннабиса. Кроме того, в его доме было обнаружено 700 грамм марихуаны.

При осмотре приусадебного участка М. Т., проживающего в махалле Нарвон Фаришского района, было установлено, что он выращивал 12 кустов мака. Во дворе его дома были обнаружены спрятанные 351 куст наркотикосодержащего мака.

Сотрудники органов внутренних дел разоблачают преступников, осуществляющих хранение и транспортировку наркотиков. К примеру, при проверке пассажиров автомобиля «Кобальт» на посту ДПС «Сангзор-15» в Галляаральском районе в кармане Х. Ш., жителя Шурчинского района Сурхандарьинской области, были обнаружены 5 грамм опиума и 100 грамм гашиша.

При проверке водителя «Нексии-3», остановленной на территории махалли Обод города Джизака, в кармане мужчины обнаружено 151,2 грамма марихуаны.

В целом в ходе первого этапа комплексных профилактических мероприятий «Қорадори – 2023» сотрудниками органов внутренних дел раскрыто 26 преступлений. Возбуждены уголовные дела по 17 фактам культивирования запрещенных к возделыванию культур, 7 фактам незаконного хранения наркотиков, а также по фактам незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ.

Оперативно-профилактические мероприятия продолжаются.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**корреспондент «Postda».**
*Джизакская область.*

*Yoz – o‘tmoqda soz!*

# BOLALAR QUVONCHIDAN YASHNAYDI OLAM

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qarashli Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida joylashgan «Oqtosh» bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida ayni paytda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 403 nafar farzandlarimiz dam olmoqda.**



Bu yerdagi kutubxonadan 2600 dan ziyod turli mavzulardagi qiziqarli adabiyotlar, ertak hamda hikoyalar, gazeta va jurnallar taxlamlari o‘rin olgan.

– Bolalarning ko‘ngilli dam olishlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni beqiyos, – deydi oromgoh boshlig‘ining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Viktoriya Sharifjanova. – Buning uchun ular, avvalo, jamoaga, oromgoh muhitiga moslashishi kerak. Bolalarning ijodiy qobiliyatlariga qarab, ularga turli yo‘nalishlar beramiz, musiqiy tadbirlarga jalb etamiz. Birinchi bor kelganlarida moslashish jarayoni qiyin kechadiganlari ham uchrab turadi. Shunday paytlarda psixologiya burchaklarida suhbatlar o‘tkaziladi. Qiziqishlari haqida so‘rab, chin dildan suhbat qursangiz, bolalar bir-birlari bilan tezda kirishib, do‘stlashib ketadi.

Oromgohga o‘z ishiga sidqidildan yondashadigan pedagog-tarbiyachi, quvnoq yetakchi, tajribali to‘garak rahbarlari jalb etilgan.

– Bolalar bilan ishlash kishidan o‘zgacha mas’uliyat talab etadi, – deydi Chirchiq shahar IIB HPB Voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog, leytenant Ma’mura Ergasheva. – Bu jarayonda ular bilan qiziqishlari bo‘yicha suhbatlashamiz, qonun-qoidalarga rioya etish borasida nimalarga e’tibor qilishi kerakligi yuzasidan tavsiyalarimizni beramiz. Asosiysi, ularning savollariga javob berishdan erinmaslik kerak.

Oromgoh bolalarining quvonchini ko‘rib, dilingiz yayraydi. Ularning quvonchiga sherik bo‘lish maqsadida ayrimlarini suhbatga tortdik:

– Bu yerdagi sharoitlar, ayniqsa, tabiat manzaralari menga juda yoqdi, – deydi nukuslik 6-sinf o‘quvchisi Zilola Reyimberdiyeva.

– Ushbu oromgohga uchinchi marta kelishim, – suhbatga qo‘shildi xorazmlik 9-sinf o‘quvchisi Shahzoda Rahmonova. – Bu yer birinchi marta kelgan do‘stlarimda ham yaxshi taassurot qoldiryapti. Tarbiyachilarimizning o‘rgatayotgan o‘yinlarini maktabga borganimizdan keyin sinfdoshlarimga ham o‘rgatmoqchiman.

Bir so‘z bilan aytganda, bolalarning miriqib dam olishlari, ko‘ngilli hordiq chiqarishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, ular dam olish bilan birgalikda, yangi do‘stlar orttiradilar, qalblari bir olam zavqqa to‘lib, yangi o‘quv yiliga katta taassurotlar bilan qaytadilar.

**Sherzod ABDUSAMADOV,**
**«Postda» muxbiri.**
**Abu KENJAYEV olgan suratlar.**
*Toshkent viloyati.*




**JIZZAX VILOYATI** ichki ishlar boshqarmasiga qarashli «Zomin» sog‘lomlashtirish oromgohida Ichki ishlar organlari xodimlari, xizmat davomida halok bo‘lganlar hamda soha faxriylarining 130 nafar farzandlari dam olishni boshlab yubordilar. Oromgohda bolalarning bilimlarini oshirishi, sport bilan shug‘ullanishi hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilishi uchun hamma sharoitlar mavjud. Jumladan, bir qator to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.





**SHAHRISABZ TUMANI**ning so‘lim va bahavo Sho‘rji qishlog‘ida joylashgan viloyat Ichki ishlar boshqarmasiga qarashli «Guliston» sog‘lomlashtirish oromgohida ayni paytda 118 nafar o‘g‘il-qiz dam olishni boshladi. Hisor tog‘ yonbag‘rida joylashgan so‘lim maskanda bolalar maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Tarbiyalanuvchilar bu yerda shaxmat, shashka, futbol va boshqa sport turlari bilan shug‘ullanib, jismonan chiniqishadi.



*Xizmatdan tashqarida*

# BIR YIGITGA QIRQ HUNAR HAM OZ

***Tong yorishib, kun tashvishi bilan uyg'ongan qishloq odamlari g'imirlab qoladi: ayollar sigir sog'ishsa, erkaklar mollarga yem-xashak beradi. Keyin tomorqaga bir qiyo boqib, holatni o'rganadi. Ekinlar suvga kelgan bo'lsa, suv berishadi, pishib yetilgan mahsulotlarni terishadi...***



Hikoyamiz qahramoni kapitan Farrux Azimov ham ana shunday mehnatsevar yigit. U Vobkent tumanining Qamchinbog' qishlog'ida yashaydi. Shu tuman IIBda profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat qiladi. Profilaktika inspektorlarining har bir kuni o'ziga biriktirilgan mahalla osoyishtaligini ta'minlashda, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan o'tadi. Ammo Farruxjon bu ishlardan ortib, xizmatdan tashqari qiziqishlariga ham vaqt topib, qo'shimcha daromad olishni yo'lga qo'ygan. Ya'ni, xalqimizning «Bosh asra, tuyoq asra, suti betingga, eti etingga», degan hikmatiga amal qildi.

– Chorvachilik bilan shug'ullanish biz uchun yangilik emas, – deydi kapitan Farrux Azimov suhbatimiz avvalida. – Bolaligimdanoq qoramolga mehr qo'yganman. Hovlimizda hamisha sigir-buzoqlarimiz bo'lardi. Ba'zan ho'kiz ham boqardik. Maktabdan kela solib molxonaga chopardim. Yuqori sinfga o'tganimda, otam qoramollarga qarashni butunlay menga topshirdi.

Farruxjon Buxoro davlat universitetini tugatgach, bir yarim yil kollejda o'quvchilarga dars berdi. Keyin viloyat IIBda bo'sh lavozimlarga ishga qabul qilinayotganini eshitgach, ikkilanmasdan hujjatlarini topshirdi. Chunki uning orzusi profilaktika inspektori bo'lish va shu maqsadda universitetning harbiy fakultetida o'qigandi.

– Xizmat faoliyatimni 2015-yilning mart oyida Buxoro shahridagi Muxtor Ashrafiy nomli MFYda profilaktika inspektorligidan boshlagan bo'lsam, uch yildirki, tumanimizning «Quruvchi» mahallasida xizmat olib boryapman, – deya so'zini davom ettirdi Farruxjon. – Mahallamizda 5554 nafar aholi istiqomat qiladi. O'tgan uch yil davomida mahalla faollari, namunali oila boshliqlari, kayvoni onaxonlar va nuroniy otaxonlar bilan birgalikda hamkorlikni yo'lga qo'ydim. Buning samarasi ijobiy bo'ldi.

– Baraka topkur o'g'lim, ancha dastyor va ishbilarmon chiqdi, – deya suhbatimizga qo'shildi Faxriddin aka. – Odatimizni bilasiz, qoziqda qoramol bo'lmasa, ko'nglimiz joyiga tushmaydi. Yoshligimdan otam, men esa o'g'limning qulog'iga quyib kelamiz. Tomorqa va meva-cheva borasida ham shunday. Oddiy olmani daraxtdan uzib, qarsillatib yeyishning gashti bo'lakcha. Yoki poliz mahsulotlarini ayting. Gapning qisqasi, ilgari to'rt-besh bosh sigir buzog'i bilan va olti-yettita qo'y-qo'zimiz bo'lardi. Farruxjon yil sayin bularning tuyog'ini ko'paytirdi. Asta-sekin qoramol boqish maqsadida o'ziga qulay sharoitlarni yaratib oldi. Bozorga yoki dalaga tushib kelishga qiynalardik. Yaqinda buning ham chorasi topildi. «Labo» rusumli yuk avtomashinasini sotib oldik. Endilikda yem-xashak keltirishda, molbozorga chiqishda qiynalmayman.

Ayni paytda F. Azimovning 28 bosh katta-kichik qoramoli bor. Ularning parvarishi uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Oilaviy daromadi ham shunga yarasha bo'lyapti. Shuningdek, tomorqa yeridan ham unumli foydalanib kelyapti. Deyarli oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmaydi. Hammasi o'zlaridan chiqadi.

Tuman IIB boshlig'ining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, kapitan Jasurbek Rasulovning aytishicha, shaxsiy tarkib orasida Farruxjon singari, uyida issiqxonalar qurib dehqonchilik qilayotgan, chorva mollarini parvarishlab elimiz dasturxoniga tortiq qilayotgan hamda turli yo'nalishlarda otasiga ko'makchi bo'layotgan xodimlar borligini bildirdi. Demak, osoyishtalik posbonlari tomorqada mehnat qilishib ham chiniqishayapti, ham ro'zg'orlariga qut-baraka kiritishyapti.

**Mirzoqul AHADOV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Buxoro viloyati.*

# ZIYO MASKANI

## osoyishtalik posbonlari ixtiyoriga topshirildi

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlarining intellektual salohiyati, dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida bir qator ezgu ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tashabbusi bilan ana shunday xayrli ishlarning davomi sifatida Piskent tumani IIB binosida yangi kutubxona foydalanishga topshirildi. Mazkur ziyo maskanining ochilish marosimida tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik L. Rahmatullayev, tuman hokimiyati mas'ullari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, kutubxonadan o'rin olgan 600 dan ortiq milliy va jahon adabiyoti durdonalari osoyishtalik posbonlari ixtiyorida. Ular orasida badiiy, siyosiy, detektiv adabiyotlar bor. Shuningdek, xodimlar bu yerda mamlakatimizda chop etiladigan davriy matbuot nashrlarini ham ko'zdan kechirishi mumkin.

Faxriylar va yosh xodimlar faol ishtirok etgan tadbirda kitob o'qishning ahamiyati, Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, ustozlarga hurmat tushunchalari haqida atroflicha so'z yuritildi. Ustozlar yoshlarga o'z maslahat va tavsiyalarini berishdi.

**Sherzod TURSUNOV,**
**mayor.**

*Toshkent viloyati.*



*«На связи Самаркандская область»*

# БЕСПЕЧНОСТЬ И ВСЕДОЗВОЛЕННОСТЬ?

**Журналисты и блогеры приняли участие в рейде инспекторов ДПС на дорогах Самарканда, во время которого стали свидетелями ряда нарушений водителями ПДД.**





Стоило группе только отъехать от Дома печати, как им повстречался первый нарушитель. Водитель такси, поворачивая в сторону бульвара, не пропустил пешехода. На порицание сотрудников ДПС 68-летний мужчина ответил, что одного пешехода он все-таки пропустил, второго же не заметил, «зрение подвело».

Неподалеку от площади Регистан инспекторы остановили тонированную иномарку, при проверке которой в базе СБДД не оказалось документа, разрешающего изменение светопропускной способности автомобильных стекол. Водитель уверял, что документ у него есть, но по неизвестной причине его «просто не видно в базе». Пока один специалист проверял, действительно ли проблема в информационной системе, другой произвел замер и выяснил, что водитель затемнил стекла на 96 процентов.

Проезжая по улице Беруни, группа заметила, что у двигавшегося впереди грузовика Labo отсутствовал регистрационный номер. Сотрудники остановили машину. Со слов водителя, номер «случайно отвалился в пути». При этом у 25-летнего мужчины, находившегося за рулем грузовика, не оказалось ни документов на автомобиль, ни водительского удостоверения... Автомобиль отправили на штрафстоянку.

Еще одного нарушителя инспекторы остановили на улице Рудаки. Водитель автомобиля марки Damas, будучи в Самарканде проездом, нарушил сразу несколько пунктов ПДД. Уроженец Сурхандарьи проехал в неположенном месте, после чего не остановился по требованию сотрудников ДПС. Кроме того, при проверке документов, выяснилось, что он управлял авто без доверенности, то есть фактически ездил на чужой машине.

– Сожалею о содеянном, – сказал 29-летний молодой человек. – Проехал в неположенном месте из-за того, что плохо знаю ваш город, не остановился по требованию – посчитал, что торможением могу спровоцировать ДТП. Что касается отсутствия доверенности, то автомобиль оформлен на брата, купили его всего месяц назад, оформить документ не успели.

Инспекторы отмечают, что правонарушители находят сотни оправданий, надеясь на снисхождение.

– Останавливаем на дорогах города нарушителей, и у каждого готово оправдание: «забыл», «не успел», «торопился», – отмечает инспектор второго отряда ДПС младший сержант Сухроб Нуриллаев. – Плохо, что отдельные водители относятся к нарушениям ПДД как к чему-то незначительному. Игнорирование правил создает на дорогах аварийные ситуации.

В ходе рейда журналисты и блогеры стали свидетелями профилактической беседы, проведенной с одним из любителей устраивать на дорогах шоу. 24-летний водитель Lacetti, двигаясь в свадебном кортеже, выполнял опасные маневры, дрифтуя на проезжей части, что было заснято на камеры и выложено в интернете. На видео он уверенно лихачил, демонстрируя пользователям соцсетей вседозволенность. Но стоило его автомобилю оказаться на штрафстоянке, как дерзость и самоуверенность куда-то испарились и посыпались извинения и обещания...

**Соб. корр.**

# ОТВЕТСТВЕННОСТЬ – ЕЕ ОСНОВНОЕ КАЧЕСТВО

**Сегодня хотим рассказать о замечательной женщине с необычным и красивым именем Генриетта, что в переводе с древнегерманского означает «благородная».**



Вот уже тринадцать лет в рядах органов внутренних дел служит замечательная женщина – рядовая Генриетта Беккер. Направление ее деятельности – служба в изоляторе временного содержания УВД Самаркандской области.

Г. Беккер – яркий пример, когда красивая и хрупкая женщина делает, если можно так выразиться, мужскую работу. При этом отметим, что героиня очерка в числе лучших сотрудников, наравне с мужчинами, а подчас даже лучше выполняет свои служебные обязанности, являясь примером для остальных.

Контингент учреждения – граждане, находящиеся под следствием, и что там говорить – у каждого своя судьба и дороги, которые привели их сюда. Но для Генриетты это люди, попавшие в трудную жизненную ситуацию, и подчас даже просто теплое слово, сказанное в их адрес, может сыграть положительную роль в их дальнейшей судьбе. Человек может понять, что не все еще потеряно, измениться к лучшему. Именно поэтому Г. Беккер много и плодотворно работает с контингентом в психологическом плане, и эта деятельность результативна.

Генриетта Беккер отличается высокой степенью ответственности, целеустремленностью, что ценится руководством подразделения и коллегами.

– Мне всегда хотелось работать в сфере правоохраны, – рассказывает Генриетта. – Когда мечта воплотилась в жизнь, осознала, что могу сделать многое, привнести свой вклад в общее дело укрепления мира и спокойствия. Конечно, среди находящихся в изоляторе есть и те, кто за преступные деяния заслуживает сурового наказания, но каждый достоин справедливого к нему отношения. Убеждена, что в нашем государстве, уверенно идущем по пути демократических реформ, права человека должны соблюдаться и обеспечиваться так, как это требует новое время.

Следует отметить, что Г. Беккер вовсе не желает останавливаться на достигнутом, а потому учится на втором курсе заочного факультета Академии МВД Республики Узбекистан. На перспективу у нее много планов, она уверена в том, что оправдает доверие отца, который всегда во всем ее поддерживает.

– Знаете, после тяжелого рабочего дня, когда прихожу домой, я понимаю, что счастлива, – признается героиня очерка. – Потому что меня встречают родные люди – супруг, дочки, свекровь. Они хорошо знают, насколько нелегка моя профессия, согревают теплом сердец, придавая мне силы и уверенность в завтрашнем дне!

**Замира БАЛТАЕВА, корреспондент «На посту».**

# BOLAJON

## YOZGI TA'TILNI MAZMUNLI O'TKAZING!

**Mana, jajji o'quvchim, yozgi ta'til ham boshlandi. Bu davrda aqliy va jismoniy salohiyatingizni saqlashingiz muhim ahamiyatga ega. Avvalo, kun tartibi yoki haftalik rejangizni oldindan tuzsangiz, keraksiz narsalarga chalg'ishga va zerikishga vaqt qolmaydi. Ta'til vaqtida badiiy adabiyotning durdona asarlari bilan tanishish uchun qulay fursat. Aziz bolajonlar, quyida siz o'qishingiz mumkin bo'lgan bir necha asarlarni tavsiya qilamiz.**

### KICHIK HIKOYA

Chingiz Aytmatov – buyuk adib va yirik jamoat arbobi, asarlari hamon qo'llardan tushmay, sevilib o'qiluvchi ijodkordir.

«O'tar qush nolasi» yirik asar emas, kichik hikoya. Qushlar tilidan aytilgan alamnok so'zlar, aslida, urushda farzandidan ayrilgan onalar, eridan judo bo'lgan juvonlar, otadan yetim qolgan bolalarning achchiq ko'z yoshlaridir. Buni yozuvchi qushlar tili bilan bayon etish orqali insoniyatning ba'zida naqadar yovuz, ba'zida naqadar mehribon bo'la olishini, ammo asrlar davomida bir-birining tinchini buzib, qonini to'kib yashashga o'rganib qolganligi, bu minglab oilalarning boshiga ko'plab jabrlar keltirganligini nadomat bilan tasvirlaydi.

Kitobni shunchaki o'qiy olmaysiz. Chunki dard to'la, umid ilinjini o'zida jamlagan minglab taqdirlar haqida so'z borar ekan, siz albatta ana shu taqdirlarning biriga aylanasiz, bir on bo'lsa-da o'z boshingizdan ularning qismatini kechirasiz.




### YUMORISTIK QAHRAMON

«Qiziquvchan Matmusa» – O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub she'riy to'plam. Shoir Matmusa obrazi orqali o'zbek adabiyotini yana bir yumoristik qahramon bilan boyitgan. O'quvchiga hazil orqali achchiq haqiqatlarni so'zlaydi. Sodda va go'l Matmusa goh dehqon, goh sotuvchi, yana bir o'rinda qo'shiqchi-yu boshqa o'rinda amaldor qiyofasida gavdalanadi. Barchasida o'zining noshudligini fazilat deb ko'rsatadi. Shoir jamiyatda uchraydigan bu kabi holatlarni hajviy tasvirlar ekan, o'quvchini ogohlikka chorlaydi.




### SARGUZASHT ROMAN

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» sarguzasht romani bolalar hayotidan olib yozilgan. Bu asarda orzu-havasga eltadigan chinakam yo'l halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan o'qishda ekanligi ta'kidlanadi.

Ma'lumki, sariq – nafs-olov ma'nolarini bildiradi. Xalqimizda nafsini tiya olmagan, nafsining quliga aylangan, ya'ni nafs bandalari «nafsi olovlar» deb ham ataladi. Ibora tarkibidagi «dev» afsonaviy yovuzlik timsoli sanaladi. Ertaklarda bayon qilinishicha, yovuz dev komiga tushgan har qanday jonzot hech qachon tirik qolmagan.







### TURKUM HIKOYALAR JAMLANMASI

Bu kitobga O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning dovruqli qissalari, turkum hikoyalari jamlangan. Bir qissada o'zgalarga boshliq bo'lib olishga urinib, ko'plarni laqillatib yurgan yolg'onchi Uloqcha birovlarniki tugul, o'z jonini ham xatarga qo'ygani bayon etilsa; ikkinchisida bahor kelishini istamovchi yovuz kuchlarning sehri bilan Navro'zoy hushsizlantirib qo'yilgani, uni qayta uyg'otish uchun botir Boychechak va uning do'stlari zo'ravonlarga qarshi jangga otlangani haqida so'z yuritiladi. Qissalarda kulgili, hayajonga boy voqealar behad ko'p. Turkumdagi hikoyalar ham bir-biridan qiziq.




### JAHONGA MASHHUR ASAR

Buyuk britaniyalik bolalar yozuvchisi Joanna Ketlin Rouling qalamiga mansub yetti qismli «Garri Potter» asari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Asarni o 'qir ekansiz, murakkab hayotning ko'plab jihatlari, yaxshi-yomonliklari, oq-u qorasi, yovuzlik bilan ezgulik o'rtasidagi mangu kurashdan oz bo'lsa-da voqif bo'lishingizga, qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishib, bilimingiz oshishiga shubha yo'q.

**Sahifa materiallarini**
**Madina QAHHOROVA tayyorladi.**

*Ўқишни тавсия этаман*

## МУВОЗАНАТНИ УШЛАШГА УНДАЙДИ




**Улуғбек Ҳамдамнинг «Мувозанат» романини ҳаяжон билан ўқиб чиқдим. Асарда асосан тўрт оила тақдири мисолида истиқлол туфайли жамиятда, инсонлар онгида кечган ўзгаришлар қаламга олинган. Ҳар қандай яхши асарда бўлгани сингари, романда турли қараш, мақсад ва ғояларга эга бўлган кишилар ўртасидаги кураш, муҳаббат ва хиёнат ҳақида мулоҳаза юритилади.**

Романда баён этилган воқеалар шу даражада реалки, кўз ўнгингизда яқин ўтмишингиз жонланади. Асар қаҳрамонлари орасида ўзингизни ёки бирор таниган-билган одамингизни учратасиз, кўнглингиздан воқеалар, тақдирлар, қисматларнинг ҳеч бири тўқима эмас, деган фикр кечади.

Мақсад ва муддаоси йўлида борлиғидан кечганларнинг фожиаси ҳам ифода этилган. Яъни, асардаги образлар мукаммал эмас, улар ҳам адашади, хато қилади, йўлдан озади. Аммо қийинчиликлар, мураккабликлар, тўсиқлар уларни мукаммаллик сари етаклайди. Бу жараёнда мувозанатни йўқотганлар эса йўқликка, бўшлиққа, мазмунсизликка қулайди.

Шу маънода, Юсуф, Амир, Миразим, Саид, Заҳро, Муҳаммаджон каби исмлар сизга қадрдон бўлиб қолади. Зеро, уларнинг ҳар бири сизда турлича ҳис-туйғуларни уйғотади. Адиб ўқувчини ҳар жабҳада мувозанатни ушлашга ундайди. Худди шундай улуғ мақсад йўлида чекинмаслик кераклигини ҳам уқтиради.

**Бахтиёр ОЛИМОВ,**
**катта сержант.**

*Санъатимиз фидойилари*

# ХАЛҚ НАЗАРИГА ТУШГАН САНЪАТКОР

**1974 йилда Югославияда Ўзбекистон адабиёти ва санъати кунлари 24 кун давом этди. Ушбу гастроль сафарида хоразмлик бир гуруҳ таниқли ижодкорлар сафида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Озод Жонибеков, «Наврўз» ашула ва рақс халқ ансамбли раҳбари, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Рўзмат Бекчанов ва ёш истеъдодли хонанда Роза Одамбоева ҳам бор эди.**



Беш минг кишилик катта залда ўзбек хонандаси Роза қўлига тор олиб «Қийма қалам қошларинг» қўшиғини айтганида, югославияликлар, айниқса, шу ерда яшаётган туркийлар уни олқишлар билан кутиб олишди. Шундан сўнг ўзбекистонлик, хусусан, хоразмлик санъаткорлар Македония, Словакия, Белградда ва яна бир нечта тарихий шаҳарларда ўзбек санъатини намойиш этишди. Айниқса, Хоразмнинг булбулзабон санъаткори Роза Одамбоеванинг жонажон Ўзбекистон ҳамда қадимий ва ҳамиша навқирон Хоразмни мадҳ этиб куйлаган мафтункор қўшиқлари минглаб қалбларни ларзага солганди. Томошабинларда Роза Одамбоева қўлидаги торнинг жарангдор ноласи гўёки чексиз само бўйлаб таралаётгандек, овози эса тоғу тошларни ларзага солиб, чақмоқ чақаётгандек тасаввур уйғотарди.

Македониялик, югославиялик ва словакияликлар ҳузурида устоз санъаткорлар Комилжон Отаниёзов, Бобомурод Ҳамдамов, Отажон Худойшукуров ва Олмахон Ҳайитовалар билан бир сафда туриб мафтункор қўшиқларини бaралла куйлаган Роза Одамбоева ўзининг ўзбек фарзанди эканини тўла намоён эта олганди.

1956 йил 25 июнда Гурлан туманидаги Вазир қишлоғида, оддий деҳқон оиласида дунёга келган Роза ёшлигиданоқ ука-сингиллари орасида ўзгача шўх ва қувноқ, санъатсевар қизалоқ бўлиб вояга етди. У 4-синфдан бошлаб мактабнинг санъат тўгарагида фаол иштирок этди ва дугоналари Султонпошша Ўдаева, Гуландом Исмоилова, Дилбар Каримовалар билан биргаликда устозларидан санъат сирларини кунт билан ўрганди. У туман ҳамда вилоятда ўтказилган кўрик-танловларда иштирок этиб, ўз иқтидори ва қобилиятини намоён эта бошлади.

1974 йилда тўрт дугона Роза, Султонпошша, Гуландом ва Дилбарлар Тошкентда бўлиб ўтган «Марҳабо, талантлар!» ёш санъаткорлар фестивали ва «Қизлар бахси» кўрик-танловларида иштирок этишди. Роза Одамбоева «Қизлар бахси» республика кўрик-танловида ўзининг бетакрор санъати билан барчани қойил қолдирди ва танлов совриндори бўлди.

Санъат осмонидаги баланд парвозлар Розани янги-янги қўшиқлар ижро этишга ундади. Энг муҳими, у ўтган асрнинг етмишинчи йилларида бир неча йиллар давомида Гурлан туманидаги «Наврўз» ашула ва рақс халқ ансамблининг фаол аъзоси сифатида эл-юртга танилиб, устозлари Рўзмат Жуманиёзов, Бобомурод Ҳамдамов, Олмахон Ҳайитова, Отажон Худойшукуров, Қувондиқ Искандаров, Рўзмат Бекчанов, Пўлат Раҳмонов ва Матназар Худойназаровлар ёрдамида таниқли санъаткор даражасига эришди. У вилоят ҳамда республикамизнинг кўплаб маданий тадбирларида, халқ сайлларида қатнашиш билан бирга, ички ишлар органларида ташкил этилган байрам тадбирларида ҳам ўз ижоди билан фаол иштирок этди. Хушовоз хонанданинг репертуари йиллар ўтган сайин янада бойиб борди. Унинг «Муҳаббат», «Фалак», «Севса бас», «Эй, севгилим, гал ёнима» сингари кўплаб қўшиқлари мухлислар қалбидан жой олди.

Халқимизнинг севимли санъаткори Роза Одамбоева ҳозир ҳам ўз қўшиқлари, дилтортар куйлари билан халқ орасида. Қўшиқсевар инсонларнинг олқиши ва эътирофида. Бу ҳар бир санъаткор учун чинакам бахт.

**Шарқия ЭШЧАНОВА,**
**журналист.**
*Хоразм вилояти.*

Служба профилактики

# «ЧТОБЫ НА УЧАСТКЕ БЫЛ ПОРЯДОК»

**Рано утром, придя на дехканский базар, торговец рисом Анваржон Набиев (имена и фамилии фигурантов дела изменены), обнаружил, что пропали четыре мешка отборного риса, которые накануне вечером он накрыл брезентом. Мужчина сильно расстроился. Это заметил сосед по прилавку.**

*– Что случилось, Анваржон ака? – участливо спросил он.*

*– Четыре мешка с рисом… Вчера, когда уходил домой, они здесь были…*

*– А вы обратитесь за помощью к Шерифу, – посоветовал сосед.*

*– Кто такой Шериф?*

*– Это старший инспектор профилактики майор Салохиддин Пакирдинов, мы его называем «Шерифом». Он честный, справедливый, всегда поможет в трудную минуту.*

*Спустя десять минут пострадавший был в кабинете старшего инспектора профилактики. Поздоровавшись, Анваржон рассказал майору о своей беде.*

*– Пойдемте к прилавку, – произнес старший инспектор.*

*Тщательно осмотрев место происшествия, майор С. Пакирдинов предложил пострадавшему оставаться на месте и продолжать торговлю рисом. «Когда будут новости, вам сообщу», – сказал он.*

*Пакирдинов отправился в помещение администрации базара. Там располагаются мониторы, на которых транслируются «картинки» с 20 камер видеонаблюдения.*

*Инспектор около двух часов работал со специалистом-компьютерщиком. Прокручивали ночные кадры с камер видеонаблюдения, пока не зафиксировали сцену: двое мужчин выносят мешки и грузят в автомашину «Тико», стоящую возле дороги.*

*Распечатав несколько кадров, майор С. Пакирдинов направился в Пахтаабадский РОВД и показал фото сотрудникам отделения уголовного розыска. Оперативники узнали одного из мужчин.*

*– Это Козим Абдуллаев, недавно вернулся из Российской Федерации, где отсидел пару лет за кражу…*



*Через полчаса оперативники вместе со старшим инспектором профилактики майором С. Пакирдиновым стучались в ворота дома подозреваемого. На стук вышла усталая женщина.*

*– Мы из РОВД, муж дома?*

*– Дома, спит, вчера всю ночь где-то пропадал…*

*Козим вскоре вышел.*

*– Где спрятал рис?*

*Поняв, что попался, мужчина уныло сказал: «Вот он, под навесом, ни рисинки не пропало».*

*– А где подельник?*

*– Спит, это мой племянник, на днях приехал из соседней области…*

Данный эпизод – один из служебной деятельности старшего инспектора профилактики майора Салохиддина Пакирдинова, которого в народе называют «Шериф».

– Окончив Андижанский государственный университет в 2012 году, поступил на службу в органы внутренних дел, – рассказывает Салохиддин. – Был назначен «детским» инспектором. На этой должности прослужил три года. Потом был переведен в службу профилактики, работал в махаллях Юкори, Бобур, Марказ. В 2020 году стал старшим инспектором. Зона личной ответственности – махалля Хабибий, ее территория охватывает центр города Пахтаабада. Курирую службу территориальных инспекторов профилактики капитана Голибжона Холдинова – махалля Юкори, лейтенанта Мухаммадзокира Азимжонова – махалля Кукон-кишлок, Фозилжона Чулпонова – махалля Хабибий-2. В вышеназванных махаллях проживает более 8 тысяч человек. На территории три школы, немало частных производственных предприятий и дехканский базар, который в день посещают свыше 10 тысяч человек, не только из Пахтаабада, но и из соседних районов: Андижанского, Избасканского, Джалакудукского. Это горячая точка. Большое скопление людей, транспорта, покупателей и продавцов иногда приводит к конфликтам, случаются мелкие кражи. Помощь оказывают наряды отряда ППС, которые совершают обходы, предотвращают нарушения.

– Почему Вас называют «Шерифом», – спросили мы в заключение беседы.

– Пару лет назад показывали по телевидению фильм, где главным героем был шериф. Кому-то показалось, что я похож на него. Стали за глаза называть меня «Шерифом». Я не против. Главное, чтобы на участке был порядок.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**корреспондент «На посту».**

***На снимке:*** *майор С. Пакирдинов беседует с жителем махалли Л. Сайфутдиновым.*

**Фото автора.**

*Андижанская область.*

Ступени успеха

# О ПРОФЕССИИ, ЖИЗНИ И СУДЬБЕ

**Старший инженер-экономист производственно-плановой группы одного из учреждений Департамента исполнения наказания при МВД Республики Узбекистан капитан Анастасия Красильникова в органах внутренних дел служит более 13 лет.**



В ходе профессиональной деятельности зарекомендовала себя грамотной и принципиальной сотрудницей. Сегодня Анастасия Борисовна в числе лучших специалистов подразделения. Являясь наставником молодых правоохранителей, она щедро делится ценным опытом, наработанным годами упорного и целеустремленного труда.

– Было время, когда сама числилась в учениках, – вспоминает А. Красильникова. – Освоить тонкости профессии мне помогла главный бухгалтер женской колонии УЯ 64/7 Надежда Радионова. Она как наставник, замечательный специалист и просто прекрасная, отзывчивая женщина активно участвовала в моей судьбе. Душой и сердцем благодарна ей, желаю крепкого здоровья и долголетия.

Профессионалы своего дела зачастую всегда в работе, бывает так, что нет ни единой минуты для занятия чем-то другим. А как с этим у героини нашего очерка?

– Я вся в работе, – улыбается Анастасия Красильникова. – Для меня профессия стала и жизнью, и судьбой, так что свободного времени практически нет. По характеру такая, этому учу новичков, недавно пришедших в органы внутренних дел. Трудолюбие очень важно, не следует оставлять дела на потом, выполнять надо их своевременно, в обозначенные сроки. Тогда и успех придет!

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**

*Salomatlik saboqlari*

# O‘TDA NEGA TOSH YIG‘ILADI?

**O‘t-tosh kasalliklari kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri noto‘g‘ri ovqatlanishdir. Tuz yoki sirkani ko‘p iste’mol qilish, harakatsiz ko‘p o‘tirish, oshqozon shamollashi, kimyoviy oziq-ovqat mahsulotlari, gazli ichimliklar ichish oqibatida hazm qilish faoliyati buziladi. O‘t qopiga ortiqcha tuzlar yig‘ilib, xolesterin qo‘shilib, mayda toshchalarga aylanadi.**

O‘t suyuqligi ovqat hazmiga yordam beradi. Taom iste’mol qilganda o‘t qopidan ajralgan suyuqlik o‘n ikki barmoqli ichakka tomadi va ovqatdagi yog‘larni parchalab, taom hazmida ishtirok etuvchi fermentlarni faollashtiradi.

Odam uzoq vaqt och yursa, o‘t dimlanadi. Davomli quyuq ovqat iste’mol qilinsa, o‘t qopidagi safro quyuqlashib, kristallar hosil bo‘ladi. O‘t pufagida tosh o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Juda ochqab, keyin birdaniga to‘yib ovqatlanish, xamirli, yog‘li, achchiq va shirin taomlarni ko‘p iste’mol qilish, kamharakatlik, asabiylashish, qorin dam bo‘lishi, qabziyat natijasida o‘t dimlanib qolib, o‘t-tosh kasalligiga olib keladi. O‘t pufagi dimlanganining birinchi belgisi – ovqatlangandan so‘ng o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq bo‘lishi, ko‘ngil aynishi, nahorda og‘iz bo‘shlig‘ida taxirlik sezilishi va holsizlikdir.

O‘t toshlarini eritish borasidagi urinishlar doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun bilib-bilmay davo choralarini qo‘llamasligimiz kerak.

Ushbu kasallikning oldini olish uchun quyidagilarni bilishimiz shart: o‘tidan shikoyati bor kishilar oz-ozdan, tez-tez ovqatlanishi, go‘shtni qaynatib yoki bug‘da pishirib iste’mol qilishi, lavlagi, rediskani qirg‘ichdan o‘tkazib yeyishi tavsiya etiladi. Sho‘r, achchiq, shirin, yog‘li taomlar, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari mumkin emas. Umumiy sog‘lomlashtirish gimnastikasi bilan shug‘ullanib turish, ichakning ravon bo‘shalib turishiga e’tibor qarating. Tosh paydo bo‘lganida, o‘t haydovchi giyohlar, dorilar mumkin emas. Chunki ular toshni qo‘zg‘atib, kuchli og‘riq paydo qiladi. Biroq tosh paydo bo‘lishidan oldin jo‘xori popugi, na’matak, o‘lmaso‘t, gazandao‘t, dastorbosh, ayir, makkayi sano, moychechak damlamalarini ichib turish kerak.

Mazkur xastalik aksariyat hollarda hech qanday belgisiz, yashirin tarzda kechadi. O‘t pufagi yallig‘langanda o‘t suyuqligining kimyoviy tarkibi o‘zgaradi. Natijada bilirubin, xolesterin, kalsiy moddalari cho‘kmalari ko‘payadi va aralash tarkibli toshlar paydo bo‘la boshlaydi.

O‘tdagi toshlar bir necha millimetrdan tortib, bir necha santimetrgacha bo‘ladi. 1–2 mm kattalikdagi toshchalar o‘t oqimi bilan chiqib keta oladi. Undan kattalari turli noxushliklarga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.



Och qoringa qirg‘ichdan chiqarilgan sabzi, smetana yoki sabzi va o‘simlik moyi qo‘shilgan bo‘tqa, yo bo‘lmasa dimlangan qovoqni asal qo‘shib iste’mol qilish ham foyda beradi. Sabzi sharbati ovqatdan oldin 1 stakandan ichilsa, o‘t suyuqligi ravonlashadi.

A’zoning harakatsizlik holatini tog‘ rayhoni, dalachoy, yalpiz yo‘q qiladi. Shivit urug‘i qaynatmasi ham o‘t toshining oldini olish va o‘tdagi cho‘kindilarni haydashda yordam beradi. Qaynatma tayyorlashda 2 osh qoshiq shivit urug‘iga 2 stakan suv solib, past olovda 15 daqiqa qaynatiladi. Keyin sovitilib, dokadan o‘tkaziladi va 0,5 stakandan iliq holda, kuniga 4 marta ichiladi. Davolanish muddati – 2–3 hafta.

Makkajo‘xori popugi tindirmasi ham davolanishda yaxshi samara beradi. Uni tayyorlash uchun choynakka 4 osh qoshiq makka popugi solinib, qaynoq suvda damlab, tindiriladi. 2 piyoladan kuniga 3 marta ovqatdan yarim soat oldin ichiladi.

Ba’zan fitoterapiya muolajalaridan keyin bemorlarning o‘ng qovurg‘asi ostida og‘riq kuzatilishi mumkin. Bu mayda toshlar siljib, o‘t yo‘llaridan tashqariga chiqayotganini bildiradi.

Ma’lumki, o‘tida toshi bor bemorlarning aksariyati operatsiya qildirishdan qo‘rqishadi. Tosh ortiqcha bezovta qilmasa, unda operatsiya qilish shart emas. Hatto ayrim insonlarda tosh umuman bezovta qilmasligi mumkin. Agar o‘tda kichikroq toshchalar borligi aniqlansa, kishi tana vaznini kamaytirishga harakat qilsa, endokrin tizimi hamda yallig‘lanish bilan bog‘liq kasalliklarni o‘z vaqtida davolatsa, bundan tashqari, parhez saqlab, me’yorida jismoniy mashqlar qilib yursa, o‘tdagi tosh bezovta qilmaydi.

Tosh kattaroq bo‘lganida, o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq sezilsa, shifokor bilan maslahatlashgan holda, og‘riq qoldiruvchi dorilar ichgan ma’qul. Agar 4–6 soat ichida ham og‘riq to‘xtamasa, jarrohga murojaat qilish darkor.

**Abdullo PARPIBOYEV,**
**IIV Namangan gospitali shifokori.**

# Что разжижает кровь в жару?

***Жара, как известно, это лишняя нагрузка на организм в целом и сердечно-сосудистую систему в частности. Летний зной провоцирует сгущение крови на фоне все того же обезвоживания и потоотделения. Для сердечников это может быть особенно опасно. Состояние дополнительно усугубляется, если не соблюдать должный питьевой режим.***

Усугубить состояние может привычная чашка кофе. Кофеин – мочегонное, и он обезвоживает организм. На жаре кофеин может спровоцировать спазм сосудов. Поэтому рекомендуется если и не отказаться от напитка, то ограничиться в сутки одной порцией.

Сладкие газированные напитки утолению жажды в жару не способствуют. Они вызывают сгущение крови, задержку жидкости в организме.

Из-за обилия сахара природного происхождения (а иногда и добавленного) в жару не стоит пить соки, даже свежевыжатые. От них еще больше захочется пить. К тому же такой напиток спровоцирует скачок сахара в крови.



Добавляйте в питьевую воду сок лимона, он не только утоляет жажду, но и разжижает кровь и не дает образовываться тромбам. Чтобы поддержать сосуды, избежать сгущения крови, в течение дня часто, но понемногу, пейте негазированную чистую воду комнатной температуры.

Помимо воды рекомендуется пить охлажденный зеленый чай (лучше с лимоном, можно с мятой), несладкий компот из сухофруктов.



**ПОЛЬЗА АБРИКОСА И ЧЕРЕШНИ**

Свежие и сушеные плоды абрикоса обладают слабительным, мочегонным, общеукрепляющим, противоатеросклеротическим действием, улучшают обмен веществ и кроветворение, являются источником витаминов группы B, аскорбиновой кислоты, калия, железа.

Клетчатка в составе черешни помогает пищеварению, питает полезные бактерии, тем самым нормализуя микрофлору. По содержанию клетчатки черешня опережает абрикосы, которые традиционно считаются лидерами. При этом черешня имеет относительно невысокую калорийность.

**Не забудьте проконсультироваться с врачом.**

O‘TGANLARNING OXIRATI OBOD BO‘LSIN

IIV Faxriylar kengashi va IIV Tibbiyot boshqarmasi shaxsiy tarkibi iste’fodagi podpolkovnik
**Ahmadjon IBRAGIMOVning**
vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga hamdardlik izhor qiladi.

*Вопрос сезона*

# КАК ВЫ ПЛАНИРУЕТЕ ЛЕТНИЙ ДОСУГ ДЕТЕЙ?



**Хушруй АКБАРОВА,
старший инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД № 2 УКД ОВД Шайхантахурского района города Ташкента, лейтенант:**

– Мы стараемся разнообразить летний досуг своих детей, чтобы они в полной мере набрались сил, здоровья и новых впечатлений. Традиционно намечается поездка в Джизакскую область, в дом моих родителей. Чистый воздух, свежие фрукты и овощи – исключительно на пользу детям. Они любят помогать там по огороду, что мы только приветствуем.

**Муродулло КАТТАКУЛОВ,
заместитель начальника Организационного управления УВД Самаркандской области, подполковник:**



– Обязательно сменим на время обстановку. Она полезна и для взрослых.

В течение лета дети будут посещать секцию плавания. Кроме того, хотим заняться изучением английского языка с репетитором.

Важно максимально оградить детей от гаджетов. По заранее составленному списку читаем познавательные книги. От повторения школьной программы отдыхаем до августа. Потом начнем готовиться к учебному году.



**Диана БУТАЕВА,
младший инспектор отдела розыска ЦПСиОУИ МВД Республики Узбекистан, рядовая:**

– Думаю, не стоит планировать каждую минуту каникул ребенка. У детей должно оставаться свободное время. Такой отдых порой гораздо эффективнее любого другого. Детям важно научиться и самостоятельности, я предоставляю им такую возможность. Буду рядом с девочками, помогать и подсказывать, поощрять инициативу. Общайтесь, смейтесь, постигайте новое вместе. Такие летние каникулы ребенок будет вспоминать с удовольствием очень долго.

**Дильноза РЕДЖАБОВА,
ведущий специалист информационной службы СБДД ДОБ МВД Республики Узбекистан, подполковник:**



– Обычно на месяц отправляю сыновей в Наманган – к любимым бабушке и дедушке. За время каникул нужно не только хорошенько отдохнуть, но и не растерять накопленные знания. Давронбек и Иронбек увлекаются изучением английского языка, а также с удовольствием посещают кружки по IT-образованию.



**Ирина ЯКУБОВА,
ведущий специалист УКСиР МВД Республики Узбекистан, капитан:**

– Лето – прекрасное время года, время каникул и отпусков. Стараемся чаще выезжать загород, находиться на лоне природы, в тени изумрудной зелени, плескаться в воде. Планируем отправиться в горы, набраться сил, получить новые впечатления.

# ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ
## (с 19 по 25 июня)

**Овен.** Овнам на этой неделе удача будет сопутствовать в личных делах. У одиноких есть шанс начать отношения с интересным, ярким человеком. Состоящие в паре избавятся от разногласий. Благоприятная неделя для того, чтобы завершить дела, до которых ранее не доходили руки.

**Телец.** Для вас не будет невыполнимых задач. Приложив определенные усилия, вы сможете еще более укрепить свой авторитет как в профессии, так и на общественном поприще. А вот дела сугубо личные будут удаваться с трудом. Не стоит также завязывать сейчас и тесную дружбу.

**Близнецы.** Близнецы могут столкнуться с конфликтом на работе, в котором им лучше всего уступить. Отсутствие гибкости и терпимости с вашей стороны может привести к еще большим проблемам. Несколько осложнятся и отношения с супругами или родственниками из-за финансовых вопросов.

**Рак.** Раки не застрахованы от личных драм и невзгод. Высока вероятность пережить любовное разочарование. Особенно актуально это для тех, кто только что начал новый роман. Впрочем, у семейных Раков накопившиеся проблемы и обиды могут прорваться, словно лавина.

**Лев.** Вы окажетесь в эпицентре важных событий. Есть шанс сыграть в них значительную роль, стать лидером. Амбиции будут удовлетворены и в личных делах. Кто-то добьется взаимности от давней зазнобы, кто-то возродит в постоянном партнере угасающие чувства.

**Дева.** На этой неделе прибавится энтузиазма. Близкий по духу человек своевременно окажет помощь. При этом желающих поддержать вас советом и даже деньгами будет немало. Среди всех этих доброхотов есть некто, кто втирается к вам в доверие, проявляйте бдительность.

**Весы.** Вы вряд ли столкнетесь с крупными затруднениями, но мелкие неприятности не исключены. Главные их причины заключаются в отчужденности и раздражительности. Те, кто занят давней семейной распрей, будут вынуждены продолжить ее, хотя это неподходящий период для выяснения отношений.

**Скорпион.** На этой неделе может подвести чувство реальности, склонность тешить себя надеждами и мечтами. Начиная новое дело, тщательно все взвесьте. Скорпионы, испытывающие трудности в отношениях, поймут, что худой мир все же лучше доброй ссоры.

**Стрелец.** Стрельцам следует обходить стороной любые скандалы – высока вероятность, что в ходе одного из них будет надолго прервана связь с близким родственником, другом или напарником по работе. У недавно начавших новый роман может появиться охлаждение в отношениях с любимым человеком.

**Козерог.** Будете заняты исключительно собой и совершенно перестанете воспринимать проблемы окружающих. Это, как ни странно, только поможет вам в работе. Перестав быть для коллег «палочкой-выручалочкой», вы завершите собственные накопившиеся дела и проекты.

**Водолей.** У Водолеев не будет времени на раскачку. Предвидится немало событий, которые потребуют молниеносных решений и действий. В этот период из-за разных проблем не сможете часто встречаться с друзьями. Те, кто ранее рассорился, вряд ли найдут дорогу к примирению.

**Рыбы.** Рыбам будет сложно проявить волю и инициативу. Придется действовать по чужой указке, да еще и в довольно непростых условиях, что станет серьезным испытанием. Также сейчас лучше не высказывать собственное мнение и не распространяться о планах.

KO‘RIK-TANLOV

# «YILNING ENG YAXSHI TIBBIY HAMSHIRASI» –

## bilim, mahorat va ijodkorlik sinovi

**Bemorni sog‘lom hayotga qaytarishda nafaqat tibbiy vosita, dori-darmonlar va zarur muolaja, balki xush xulqi, shirinsuxanligi bilan ajralib turadigan, ming bir dardga darmon berguvchi hamshiralar muhim o‘rin tutadi. IIV Markaziy poliklinikasining o‘rta tibbiy xodimlari ham osoyishtalik posbonlarining salomatligini saqlash yo‘lida fidoyilik bilan faoliyat olib borayotir. Mazkur tibbiyot muassasasi hamshiralari ishtirokidagi «Yilning eng yaxshi tibbiy hamshirasi» ko‘rik-tanlovi ularning bilimi va ijodkorligini sinovdan o‘tkazdi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.**



An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan mazkur ko‘rik-tanlovda muassasaning o‘rta tibbiy xodimlari tanishtiruv, nazariy savol-javoblar, amaliy mashg‘ulot hamda erkin mavzu shartlari bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

– Baholash mezonlarida hamshiralarning bilimi, intellektual va kasbiy salohiyati, ijodkorligiga ahamiyat berildi, – deydi hakamlar hay’ati a’zosi, IIV Markaziy gospitali boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, mayor Muhabbatxon Adilova. – Ular ikkinchi shartda nafaqat tibbiy bilim va to‘plagan tajribalari, balki mamlakatimizdagi siyosiy jarayonlar, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar borasidagi savollarga zukkolik bilan javob qaytarishdi. Amaliy mashg‘ulot sinovida esa belgilangan vaqtda jarohat joyini tez va sifatli bog‘lash bo‘yicha tibbiy xodimlar mahoratining bevosita guvohi bo‘ldik.



Erkin mavzu sharti tanlovga haqiqiy ma’noda xush kayfiyat bag‘ishladi. Tibbiyot muassasasi o‘rta tibbiy xodimlari sahnada o‘z ijrochilik qobiliyatlarini namoyish etishdi. Xususan, Fotima Abduraimovaning jajji o‘g‘li Jahongir bilan «Soy bo‘yida» milliy qo‘shig‘ining o‘ziga xos talqini, Abbos Tulaboyevning «Onamni ko‘rgani boraman» taronasi orqali tomoshabinlar orasidagi munis onasiga ko‘rsatgan hurmat-e’tibori barchaga manzur bo‘ldi. Malohat Azimova «Tanovar» raqsini maromiga yetkazib ijro etgan bo‘lsa, Nargis Muhammedovaning hamkasblari bilan birgalikda «Jaydari kelin» spektaklidan namoyish etgan lavhasi barchaning yuziga kulgu-tabassum bag‘ishladi.

Bellashuv yakuniga ko‘ra, faxrli birinchi o‘rin Terapiya bo‘linmasi tibbiy hamshirasi Nargis Muhammedovaga nasib etdi. U endi ko‘rik-tanlovning keyingi bosqichida IIV Markaziy poliklinikasi sharafini himoya qiladi.

**Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,**
**«Postda» muxbiri.**







Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Foziljon MAMASHARIPOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №V-5512.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50797 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.